

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI**

**DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI**

“Himoya qilishga ruxsat beraman”  
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani  
\_\_\_\_\_ prof.X.A.Meliyev  
“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2013 y.

**5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr  
darajasini olish uchun**

**“PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING MAXSUS  
TA'LIM AMALIYOTIDA QO'LLANILISHI”**

**MAVZUSIDA BAJARILGAN**

**BITI RUV MALAKAVIY ISH**

**Bajaruvchi:** O'tamurodova Nodira Karimberdiyevna  
401 guruh talabasi

**Ilmiy rahbar:** o'qit.X.Muzaffarova

Ishni himoyaga tavsiya etaman o'qit.X.Muzaffarova

\_\_\_\_\_  
(imzo)

BMI Defektologiya kafedrası yig'ilishining qarori bilan  
(Qaror № \_\_, \_\_.0\_.20\_\_ y) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: t.f.n.G'.Arifxodjayev

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**JIZZAX - 2013**

## **M U N D A R I J A**

|                                                                                                                                                          |              |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|
| <b>KIRISH.....</b>                                                                                                                                       | <b>3-4</b>   |
| <b>I.BOB. Maxsus ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.</b>                                                                             |              |
| 1.1. Pedagogik texnologiyalar mohiyati va ularni yordamchi maktablarda ta'lim – tarbiyani tashkil etishda tutgan o'rni.....                              | <b>5-11</b>  |
| 1.2. Maxsus maktablarda korreksion - pedagogik ta'limni zamonaviy interfaol usullar asosida tashkillashtirishning amaliy ahamiyati.....                  | <b>12-17</b> |
| <b>II.BOB. Yordamchi maktablarda o'quv predmetlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalarning didaktik ahamiyati.</b>                                     |              |
| 2.1. Yordamchi maktab o'quv predmetlarini o'qitishning texnologik asoslari va ularning didaktik ahamiyati.....                                           | <b>18-26</b> |
| 2.2. Pedagogik texnologiyalarni ta'limga to'g'ri tadbiq etishda maxsus maktab-internat o'qituvchi – tarbiyachilari malakasiga qo'yiladigan talablar..... | <b>27-32</b> |
| 2.3. Maxsus ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarining o'ziga xosligi.....                                                     | <b>33-46</b> |
| <b>XULOSA.....</b>                                                                                                                                       | <b>47-51</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>                                                                                                           | <b>52-53</b> |
| <b>ILOVA .....</b>                                                                                                                                       | <b>54-63</b> |

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta'lim davlat siyosatida markaziy o'rinlardan birini egalladi. Bu esa "Ta'lim to'g'risida" gi qonun xamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning yaratilishiga asos bo'ldi. Natijada ta'lim jarayonida ta'lim mazmunining yangi loyxasi - ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarurati vujudga keldi. Oliy Majlisning XIVsessiyasida xam O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Islom Karimov "Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur" ligini uqtirgan edilar. Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limining yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillariga assolangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilmog'i kerak.

Ilg'or pedagogik texnologiyasining markazida esa ta'lim jarayonining rahbari xamda shu jarayonning sub'ekti-yu ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi turadi. Shunday ekan, bu ikki shaxsning hamkorligi, o'zaro muloqati, bir-biriga kursatadigan ta'siri eng zamonaviy va milliy talablar asosida tashkil topishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda, o'qituvchi ta'lim tarbiya jarayoni oldiga qo'yilgan talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish printsiplari xamda yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o'qishga o'rgatishga yunaltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini tug'ri tashkil etish, ular bilan muloqatga kirishishi, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, sinfdan ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholash metodlari bilan qurollangan bo'lishi lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz "Pedagogik texnologiyalar va ularning maxsus ta'lim amaliyotida qo'llanilishi" mavzusini dolzarb deb topdik.

**Tadqiqotnng maqsadi:** Pedagogik texnologiyalar va ularning maxsus ta'lim amaliyotida qo'llanilish yo'llarini rivojlantirish va ishlab chiqish.

**Tadqiqot vazifalari:**

- maxsus pedagogika va turli metodik adabiyotlardan muammoning holatini o'rganish hamda maxsus maktablarda pedagogik texnologiyalarni qo'llash metodlarini aniqlash, dolzarbligini asoslash;

- ta'lim texnologiyalarini qo'llashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bola qobiliyati va imkoniyatlarini nazarda tutish bu boradagi o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish.;
- maxsus maktablarda ta'lim texnologiyalarini qo'llashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot usullari:** Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda bajarilgan malakaviy bitiruv ishini yozish mobaynida:

adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish, Maxsus maktabda darslarni kuzatish, tahlil qilish, o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlar uyushtirish, hujjatlarni o'rganish, tahlil etish kabi usullar ishlatildi.

**Tadqiqot ob'ekti:** Maxsus maktabning 5 - 6 sinflari (aqli zaif) o'quvchilari.

**Tadqiqot predmeti:** Pedagogik texnologiyalar va ularning maxsus ta'lim amaliyotida qo'llanilishi, maxsus maktab o'quvchilariga yangi pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishning mazmuni, shakli va usullari.

**Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi;**

Tadqiqotimizning nazariy va metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oliy Kengash, Oliy Majlis» qonunlari, xususan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari va hujjatlari, Prezidentimiz Islom Karimov asarlari, ma'ruza va nutqlari, milliy istiqlol g'oyasi mafkurasi bo'yicha hukumat hujjatlari tashkil etadi. Buyuk Sharq va G'arb ajdodlarimizning allomalari, mutafakkirlari va olimlarining o'quv, bilim faoliyati, ta'lim-tarbiya, maktabda darslarda o'quvchilar bilan olib boriladigan eng samarali ish uslub, yo'llari, usullari ham tadqiqotimizning metodologik asosini tashkil etdi.

«Pedagogik texnologiyalar va ularning maxsus ta'lim amaliyotida qo'llanilishi» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishimiz Kirish qismi, ikki bob, beshta paragraf, xulosa, adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **I.BOB. MAXSUS TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**

### **1.1. Pedagogik texnologiyalar mohiyati va ularni yordamchi maktablarda ta'lim – tarbiyani tashkil etishda tutgan o'rni**

O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturida insonni intellektual va ma'naviy – axloqiy tarbiyalash bilan uzviy bog'langan uzluksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish nazarda tutilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimi oldidagi mazkur vazifalarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, samaradorlik esa o'z navbatida ta'lim oluvchilar va beruvchilarning faoliyatini tashkil etilishi va faollashtirilishiga bog'liqdir.

Ma'lumki, amaliyotga yangi o'quv reja, davlat ta'lim standartlari va dasturlar, darsliklarning yangi avlodlari taqdim etildi. Shularning davomi sifatida, bugun ta'lim sohasi mas'ullari oldida turgan dolzarb masalalardan biri pedagogik texnologiyalar asosida, innovatsion yondashuvlar orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishdan iborat.

Maxsus ta'lim muassasalari pedagogik xodimlarining yangi, ilg'or pedagogik texnologiyalar, jumladan o'qitishning zamonaviy interfaol usullarini bilishi, uning uchun tegishli ma'lumotlarni o'rganishi, tahlil qilishi va umumlashtirishi, amaliyotda qo'llay olishi bugungi kunning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi talabidir.

Mamlakat miqyosida ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishda ularning ilmiy asoslangan, natijalari kafolatlangan ko'rinishlaridan foydalanish yuzasidan ma'lumotlar mavjuddir.

Shunday ekan, pedagogik texnologiya nima va uning ilg'orligi nima bilan tavsiflanadi? kabi savollarning javobini bilish asnosida uning mohiyatini tushunmoq darkor. Pedagogik texnologiya yoxud zamonaviy pedagogik texnologiyaning an'anaviy o'qitish metodlaridan nimasi bilan farq qilishi yuzasidan ko'p adabiyotlarda sharxlar keltirilgan.

Jumladan, J.G'.Yo'ldoshev va S Usmonovning "Pedagogik texnologiya asoslari" nomli risolasida quyidagicha ta'rif keltirilgan:

"Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya berish bo'yicha ko'zda tutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan jarayon".

B.Ziyomuxammedovning "Ilg'or pedagogik texnologiya" uslubiy qo'llanmasida V.P.Bespal'kning quyidagi ta'rifi keltiriladi: "Pedagogik texnologiya bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvoffaqiyatni kafolatlaydigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyixasidir.

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: "Pedagogik texnologiya-avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir"-deya ta'rif beradi.

M.V. Klarin fikricha : "Pedagogik texnologiya - o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir".

V.P.Bespal'kning O'zbekistonlik shogirdlaridan Nurali Saydaxmedov va Abduraxmon Ochilovlarning ta'kidlashlaricha, pedagogik texnologiya bu o'qituvchining o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoitda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir"<sup>1</sup>.

B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy muxandislik ong ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart xolga solib, uni optimal loyixasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy xodisadir"<sup>2</sup>.

YUNESKO quyidagicha ta'rif beradi: "Pedagogik texnologiya- bu butun o'qitish va bilimlarni samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli metodidir" .

---

<sup>1</sup> Saydaxmedov N.Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyixasi.T: 1999, 7-8 bet

<sup>2</sup> Farberman B.L.Ilg'or ped.texnologiyalar.:T.1999, 4-bet

Pedagogik adabiyotlar, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, maqolalar, rasmiy xujjatlarda "Ilg'or pedagogik texnologiya" iborasi keng qo'llanilmoqda. Biroq, "Pedagogik texnologiya" tushunchasi bir qolipga tushirilib, entsiklopediyalarda izoxlanganicha yo'q, ya'ni pedagogik texnologiya mazmunining yagona talqini ishlab chiqilmagan. Shu jihatdan olganda barcha ta'riflarda keltirilgan pedagogik texnologiyani uch jihatini asoslash mumkin:

1. Tizimli yondashuv.
2. Natijalarning kafolatlanishi.

Usullar majmuasi yoki usullar va vositalar uyg'unligi.

Har qanday ishni boshlashdan oldin inson ko'z o'ngida faraz nomoyon bo'ladi, u shu farazga etish uchun oldiga vazifalarni qo'yadi. So'ngra vazifalarni qanday reja va qaysi vositalar orqali amalga oshirish mumkinligi ustida fikr yuritadi. Ushbu jarayonning borish tartibi pedagogik jarayon uchun ham xosdir. Ya'ni har qanday o'qitish jarayoni aniq maqsadni ko'zlaydi. Maqsad aniq va real bo'lsa, natijalar ham shunchalik erishimli va qo'lga kiritilishi lozim bo'ladi. Bundan tashqari korreksion-pedagogik jarayonning amalga oshirilishi unda qo'llaniladigan usul va vositalarning maqsadga muvofiqligiga ham bog'liqdir.

Vositalar xilma xil va qanchalik zamonaviy bo'lmasin o'qituvchi va tarbiyachining maxorati va uning o'z ishiga ma'suliyati etarli bo'lmasa, bunday jarayon samarasiz yakunlanadi. Shu bois nogiron bolalarga ta'lim beruvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Bu borada L.V.SHmel'kova ishlab chiqqan o'qituvchining texnologik loyihalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturidan foydalanish tavsiya etiladi<sup>3</sup>.

Ushbu dasturda o'qituvchining texnologik loyihalash qobiliyatiga quyidagi talablar qo'yiladi:

-pedagogikaning umumiy qonun-qoidalarini bilish;

-ta'limga texnologik yondashuvga oid dastlabki manbalarni va loyihalash, individuallashtirish, texnologiyalashtirish jarayonlarining o'zaro bog'liqliklari haqida tushunchaga ega bo'lish;

---

<sup>3</sup> XT jurnali №5 2003 55-bet

- ta'limni taraqqiy ettirishda texnologiyalarning o'rnini tushunish;
- o'qitishni shaxsga yo'naltirishning asosiy maqsad, tur shakli, va darajalari haqida tasavvurga ega bo'lish;
- “individual yondashuv”, “o'qitishni tabaqalashtirish”, “individual o'qitish” tushunchalari o'rtasidagi bog'lanish va farqlanishlarni bilish;
- o'quv jarayonini tashkil qilish vositalari orqali o'quvchining individual xususiyatlarini rivojlantirish yo'llarini bilish;
- ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirishda individual rivojlantiruvchi texnologiyalar imkoniyatlarini bilish;
- ta'lim-tarbiyani loyihalashga oid yondashuvlar hamda loyihalashda asosiy bosqichlarni ajrata olish;
- loyihalashga oid asosiy pedagogik ob'ektlarni bilish;
- mavjud sharoitdan kelib chiqadigan holda tashhislanadigan maqsad qo'ya bilish;
- texnologiyalashtirishning umumiy mezonlarini bilish;
- o'quv materialini o'lchanadigan va kuzatiladigan darajada qismlarga ajratish;
- o'quv jarayonining mantiqiy tuzilishini qulaylashtirish;
- o'quv mavzuning texnologik kartasini loyihalay olish;
- o'quvchilarning o'zlashtirishini, rivojlanishini qayd etib boruvchi axborot kartalarini loyihalashni bilish.

Ma'lumki, pedagogik texnologiya tushunchasi pedagogik tizim tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib uning ajralmas qismi bo'lib xizmat etishi mumkin.

Pedagogik texnologiyalar qanday turlarga, darajalarga bo'linadi va ular qanday tavsiflanadi degan savolga turlicha javob olish mumkin. Jumladan, N.Sayidahmedov fikricha, umumpedagogik texnologiyalar "pedagogik tizim" tushunchasiga yaqin va uning loyihasi hisoblanadi .

L.Golishning qayd etishicha, ta'lim texnologiyasi loyihalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va baholash kabi bosqichlardan iborat operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

Loyihalash - mo'ljalangan maqsad va uni amalga oshirish usul va vositalari yig'indisini aniqlashdan iborat. Bu blok doirasida quyidagi ketma-ketlikda operatsiyalar amalga oshiriladi:

- ta'lim texnologiyasini amalga oshirish vaqtini aniqlash: o'quv choragi, yarim yilligi, yillik va butun ta'lim davri uchun;
- o'quv materiallarini tahlil etish;
- maqsad va didaktik vazifalarni ajratib olish;
- o'quv materiallarini ma'lum tuzilmaga keltirish va vaqt bo'yicha taqsimlash; bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bosqichlari, shuningdek, shaxsning sifat va fazilatlarini rivojlantirishni aniqlab olish;
- o'quvchilarning qiziqtirish usuli va vositalarni aniqlash;

Amalga oshirish bloki - bu loyihalash - tuzish blokida o'ylab qo'yilgan maqsadga amalga oshirish jarayonidir.

Nazorat qilish, nazorat blokining vazifasi - qo'yilgan maqsadni amalga oshirishning borishi haqida joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarini o'tkazish, ya'ni muntazam ravishda teskari alokani ta'min etish va axborotga qayta ishlov berishdan iborat.

G.YU.Ksenzova pedagogik texnologiyani loyihalashtirish deganda ta'lim jarayonida bosqichlarni ajratish orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining istaklari va faoliyatiga ta'sir etuvchi dasturni ishlab chiqishni, V.S.Kukushkin esa pedagogik texnologiyani loyihalashtirish pedagogik texnologiyaning aniq sharoitlari uchun qo'llash tizim tanlashni e'tirof etadi.

O'.Q.Tolipovning fikricha, loyihalash pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish va amalga oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanib, faoliyatni tahlil qilish, uni oldindan ko'ra bilish va rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Pedagogik vazifani hal etishning bu bosqichida o'zining va o'quvchi faoliyatining mazmuni, vositalari va dasturlarini loyihalashga nisbatan mustaqil yo'naltirilgan, o'zaro uzviy aloqada bo'lgan o'qituvchi faoliyatini ko'rsatish mumkin.

Shunga ko'ra pedagogik jarayonni loyihalash mazmuni (loyiha-mazmun-faoliyat), moddiy yoki moddiylashgan vositalarni (loyihalash-moddiy) va faoliyatni (loyihalash-operativ) loyihalash texnologiyalari birligi sifatida namoyon bo'ladi.

M.G.Murav'yova umumiy holda ta'lim jarayonini loyihalashtirishni quyidagi bosqichlarga ajratadi:

1. Dastlabki holatlarni tahlil qilish, ta'lim maqsadlarini aniqlashtirish.
2. G'oyalarni generatsiyalash: ta'limning texnologik usullari variantlarini, ya'ni ta'lim mazmunini o'zlashtirish bo'yicha o'quvchilar o'quv bilish faoliyati uslublari tizimini tuzish.
3. Har bir variantni baholash va eng qulayini tanlash -loyihalashtirilayotgan ta'lim jarayonining umumiy modelini yaratish.
4. Tanlagan texnologik usulni, ya'ni o'quvchilar o'quv-bilish faoliyatini boshqarish bo'yicha o'qituvchi faoliyatining didaktik uslublar tizimini amalga oshirish uslublarini ishlab chiqish.
5. Ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash.
6. Tafakkurdagi eksperiment - kelajadadagi jarayonni ko'z oldiga keltirish, jarayonning fazo va vaqt karakteristikalarini belgilash va aniqlashtirish.
7. Loyihani hujjat sifatida rasmiylashtirish.

An'anaviy ta'limda o'quv axborotlarini uzatish mohiyatiga ko'ra bir tomonlama muloqotga asoslangan. Bu holat o'quv materiallarini to'laligicha o'qituvchi tomonidan bayon etilishi va ularning o'quvchilar tomonidan qabul qilib olinishi bilan asoslanadi. Shu bois ta'lim jarayonining etakchi sub'ekti bo'lgan pedagogning bilim darajasi, maxorati, shuningdek, o'quvchilarga bo'lgan yondashuvi ta'limning asosiy omili hisoblanadi. Natijada o'quvchi "oddiygina tinglovchi", o'qituvchi tomonidan uzatilgan o'quv axborotlari (bilimlar)ni "qayta takrorlovchi" sifatidagina namoyon bo'ladi. Uning ta'lim jarayonida eng faol ishtiroki "tengdoshining o'qituvchi tomonidan berilgan savolga berilgan javobini to'ldirish yoki o'qituvchiga o'rganilayotgan mavzu bo'yicha savol berish" bilangina cheklanardi.

Shundagina, aytish joiz bo'lsa, ikki tomonlama aloqa, muloqot yuzaga kelardi. O'quvchining ta'lim jarayonidagi sust ishtiroki nazariy bilimlarni ijodiy o'zlashtirishi, o'z ustida izlanishi, o'quv materialini bo'yicha yangi manbalarni izlab topishi, faol ishtirokchiga aylanishi uchun imkon bermas edi.

Uzoq yillar davomida ta'limda etakchi o'rin tutib kelgan an'anaviy ta'lim mohiyatini tahlil qilish uning quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'lganligini ko'rsatadi:

- 1) o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim darajalarini aniqlash va baholash;
- 2) o'qituvchining yangi mavzuni og'zaki bayon qilishi;
- 3) o'quvchilarning yangi mavzu bo'yicha o'qituvchiga savollar bilan murojaat qilishlari;
- 4) savol-javoblarni tashkil etish orqali o'quvchilarning yangi mavzuga oid nazariy bilimlarni o'zlashtirilish holatining o'rganilishi;
- 5) dars (mashg'ulot)ga yakun yasalishi va uyga vazifalarning topshirilishi.

Ta'lim jarayonida ko'p tomonlama aloqaning mavjud bo'lishi o'qituvchining "hukmronligi"ni inkor etibgina qolmay, o'quvchi uchun o'z bilimlari darajasini baholash, yutuq va kamchiliklarini aniqlashga ham imkon beradi. Ko'p tomonlama aloqaning yana bir afzalligi - bu o'quvchilarda shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish, o'z qarashlarini himoya qilish, o'zgalarning fikrlarini tinglay olish, ularni umumlashtirish, bildirilayotgan fikrlar orasidan asosiy, muhim va haqiqatga yaqinlarini ajratish hamda xulosalash kobiliyatini ham tarbiyalashdi. Bu holat komil insonni tarbiyalab voyaga etkazishning muhim shartlaridan biridir.

## **1.2. Maxsus maktablarda korreksion - pedagogik ta'limni zamonaviy interfaol usullar asosida tashkillashtirishning amaliy ahamiyati**

Ta'lim jarayonida ko'p tomonlama aloqani yuzaga keltirish maqsadida so'nggi yillarda ko'plab yangi ta'lim metodlari asoslandiki, ular "muammoni shakllantirish va bahsga kirishish tajribasini o'zlashtirishga imkon beradi". Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv predmetlari bo'yicha tashkil etiladigan darslarning "o'qituvchi hikoyasi"ga asoslanib qolmasligiga erishish maqsadida o'quvchilarni axborotlarni o'zlashtirishga ijodiy yondashish, ma'lum holatlar yuzasidan fikrlash, uning echimini topishga shaxsan intilishini ta'minlovchi interfaol ta'limdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ayni o'rinda "interfaol ta'lim nima?" degan savolga javob berib o'tish lozim.

Bizning nazarimizda, interfaol ta'lim - bu ta'lim jarayoni sub'ektlari (o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'quvchilar) o'rtasidagi o'zaro faol, ta'sirchan harakat, o'quv predmetlari bo'yicha bilimlarni faol, qizg'in munozalar asosida o'zlashtirish shaklidir. Interfaol ta'lim ta'lim jarayonining istiqboli, uning samaradorligini kafolatlovchi vositadir. Binobarin, uning yordamida ta'lim oluvchilarning aqliy tafakkuri yanada rivojlanadi, dunyoqarashi boyidi, ijtimoiy moslashuvchanlik qobiliyati tarbiyalanadi. O'quvchilarni o'quv materiallarini ijodiy yondashuv, faol o'rganishga yo'naltiruvchi ta'lim jarayonida ta'lim metodlari muayyan ta'lim turi yoki shakli bilan o'rin almashadi. Demak, o'quv jarayoni unda qo'llaniluvchi metodlarga muvofiq hech bir qiyinchiliksiz muammoli yoki izlanuvchan (evristik) ta'lim bo'lishi mumkin.

Ta'lim jarayoni o'quvchilarni o'quv materiallarini o'zlashtirishga yo'naltirishga ko'ra ham bir necha turda tashkil etilishi mumkin.

Masalan, passiv, faol, interfaol.

Passiv ("ekstrafaol" - "tashqaridan") ta'lim asosan darsda tarbiyachining etakchi bo'lishiga asoslanib, bolalar barcha o'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni tarbiyachining suhbatidan, ko'rsatmasidan o'rganadilar. Bunda ta'lim ishtirokchilari o'rtasida faollik, hamkorlik va o'zaro ta'sir sezilmaydi va xatto ehtiyoj sifatida ham maydonga chiqmaydi.

Ta'lim amaliyotida ekstrafoal ta'lim uzoq yillardan buyon qo'llanilib keladi va an'anaviy harakter kasb etgan.

Faol (ichki) - bunda bola ijodiy ish, vazifalarini mustaqil bajaradi, ijodiy izlanadi va mavjud bilimlarni o'zlashtiradi. Bunda ham bolalarning mustaqil topshiriqlarni bajarishlariga imkoniyat yaratilsada, biroq ularning tarbiyachi bilan o'zaro hamkorliklari ko'zga tashlanmaydi

Ta'lim jarayonida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik muhim ahamiyatga egadir. Zero, bolalar mustaqil bilim olishlarining qay darajada to'g'ri tashkil etilayotganligini kuzatish, nazorat qilib borish, yo'l-yo'riq ko'rsatish, zarur o'rinlarda pedagogik va metodik maslahatlarni berish ta'lim samaradorligini ta'minlovchi omildir.

Interfaol (tashqariga) ta'limda asosan bolalarning "Mening fikrim", "Men kimgadir ta'lim berishim mumkin" mazmunidagi yondashuvlari kuzatiladi. YA'ni ta'lim bolalar va o'quvchilar tomonidan tashkil etiladi, ular bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar. Bunda o'qituvchi va tarbiyachi tashkilotchi, boshqaruvchi, ekspert va kuzatuvchi vazifasini bajaradi xolos. U xatto ayrim holatlarda "o'quvchi"ga ham aylanib qolishi mumkin

Interfaol (o'zaro) ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar hamda ularning o'rtalarida ham, o'zaro hamkorlik, hamfikrlilik, hamjihatlik yuzaga keladi.

Bu hamkorlik o'quv materialini o'zlashtirish, nazariy va amaliy bilimlarni boyitishga xizmat qilib, shuningdek, muammoli vaziyatlarning ijobiy hal etilishini ta'minlabgina qolmay, ta'lim jarayonining ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro psixologik yaqinlik va birlikni ham yuzaga keltiradi. O'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi harakatlari, o'zaro ta'sirlari va hamkorliklari ta'lim jarayonida qo'lga kiritiluvchi barcha muvaffaqiyatlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi

"Interfaol" so'zi (ruscha "interaktiv") ingliz tilidan olingan bo'lib, «inter» - o'zaro, "akt" - faol harakat, faollik, ta'sirchanlik) o'zaro harakat, birgalikdagi faoliyat ma'nolarini anglatadi.

O'zaro, birgalikdagi faoliyat jarayonida o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi orasida ta'lim maqsadlariga erishish yo'lida tashkil etiluvchi hamkorlik kuzatiladi. Interfaol metodlar yordamida uyushtiriladigan mashg'ulotlarda o'quvchilar ma'lum darajada o'qituvchiga, guruh esa yagona, o'zaro hamkor, hamjihat jamoaga aylanadi.

O'qituvchi va o'quvchilar, shuningdek, o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yuzaga kelishini ta'minlovchi ta'limiy faoliyat interfaol ta'lim deb yuritiladi. Interfaol ta'limda o'qituvchi va o'quvchilar, o'quvchilar o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro munosabat odatda u yoki bu muammoni qay tarzda hal etish, qarorlarni qabul qilish to'g'risidagi takliflarning ilgari surilishi va yakuniy qarorning qabul qilinishini ifodalaydigan munozara shaklida namoyon bo'ladi.

Interfaol metodlar turli masalalar va o'zaro munosabatlarning keng qatlamini o'z ichiga oladi.

Biroq o'quv materialini samarali o'zlashtirish yo'llari qanday bo'lishidan qat'iy nazar o'quvchilarning shaxsiy tajribalari ta'limning asosiy manbasi bo'lib hisoblanadi.

Interfaol ta'lim jarayonida bolalar quyidagi shaxslar bilan o'zaro munosabatda bo'ladilar:

- 1) tarbiyachi bilan (ya'ni bola uning savoliga javob qaytarayotganda);
- 2) guruhdoshlari, taklif qilingan shaxslar bilan (ma'lum predmet asoslarini o'zlashtirish chog'ida tegishli sohada faoliyat yuritayotgan biror bir tashkilot yoki jamoa a'zolari bilan muloqot qilishlari mumkin);
- 3) tengdoshlari yoki turli yoshdagi bolalar bilan (juftlik asosida ishlash vaqti);
- 4) kichik (3-5 nafar bolani qamrab oluvchi) guruhlarning a'zolari bilan;
- 5) katta (6-9 nafar bolalardan tashkil topgan) guruhlarning a'zolari bilan (rolli o'yinlarni o'ynash, davra suhbat, mushoira, munozara va boshqalarda ishtirok etish);
- 7) ayrim texnik vositalar bilan (mas., komp'yuter, tele va audio apparatlar, video kameralar, slaydlar, kinoprojektorlar va hokazolar).

Shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, bolalarning soni ta'lim yoki o'zaro munosabatning sifati hamda samaradorligini belgilamaydi. "O'zaro hamkorlik"ning muhim jihati uning yuzaga kelishi bo'lib, u asosida o'quvchilar muayyan predmet bo'yicha fan asoslarini mustaqil, bir - birlari bilan o'zaro faol munosabatda o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda ekstrafool, faol va introfaol ta'lim jarayonlariga interfaol metodlarning tatbiq etilishi, ularning samarali kechishini ta'minlash bilan birga, zamonaviy ta'lim uchun o'ta muhim sanalgan o'zaro hamkorlik asosida ta'lim olish uchun ma'lum sharoitlarni vujudga keltiradi. Interfaol shaklda tashkil etiluvchi ta'limning samarasi juda yuqoridir. Yuqorida aytib o'tilganidek, ta'lim jarayonida o'rganilayotgan mavzu yoki o'zlashtirilayotgan bilimlar bo'yicha har bir o'quvchi o'ziga xos tasavvurga ega bo'ladi. Ana shu tasavvur asosida o'quv topshiriqlari bajariladi. O'quvchining o'quv faolligi bilimlarni o'zlashtirishda shaxsiy tajribaga qay darajada tayana olishi yoki shaxsiy tajribani o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltira bilishi bilan belgilanadi. O'quvchilarning barchasini o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan munosabatlarida bir necha umumiy tamoyillar aks etadi. Ular quyidagilardir:

1. O'quvchilar predmetni o'zlarining individual tushunchalarini rivojlantirish orqali o'zlashtiradilar.

2. Ta'lim jarayoni shaxsga o'zining avvalgi va yangi bilimlarini birlashtirgan holda bilimlarni o'zlashtira olganligi va chuqur tushunganligini isbotlashga imkoniyat yaratishi lozim. Bu imkoniyat o'quvchining muhokama jarayonida faol ishtirok etishiga yordam beradi.

3. Bilimlar ijtimoiy sub'ektlar tomonidan yaratilgan madaniyat, o'tmish tajribalari va qadriyatlari ta'sirida yaratiladi, shu sababli xilma-xillik fikrlash faoliyatining yuzaga kelishida asosiy rolni o'ynaydi.

4. Falsafiy qarashlar o'quv amaliyotida muammoni o'rganish, dialog (suhbat, bahs-munozara)ni tashkil etish va muayyan holat yoki vaziyatga baho berishga yo'naltirilgan faoliyat shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi.

O'quv jarayonining vazifasi har bir o'quvchining shaxsiy tajribasida namoyon bo'luvchi dastlabki bilimlarni o'quv materiallarini o'zlashtirishga yo'naltira olishdan iboratdir. Amerikalik olimlar D.Djonson va R.Djonsonlar o'z tadqiqotlarida bu vazifani qanday va qay darajada samarali hal etish mumkinligini tahlil etadilar va "bilimlarni o'zaro hamkorlikda o'zlashtirish qadamlari" nazariyasi ilgari suradilar.

Mazkur nazariya mohiyatida quyidagi beshta asosiy holat aks etadi:

- 1) dastlabki pozitsiya (daqiqalar)da mavjud bilimlarni namoyish etishni tashkillashtirish;
- 2) mavjud bilimlarni yangi bilimlarning o'zlashtirishshshi uchun asos bo'lishini ta'minlash;
- 3) shaxsiy yondashuv va tajriba asosida o'z qarashlarining qay darajada asosli ekanligini baholash (o'ziga hujum uyushtirish);
- 4) o'zlashtirilayotgan bilimlarni turli nuqtai nazarlar asosida tahlil etish (revers pozitsiy);
- 5) barchaga birdek tushunarli bo'lishi uchun bildirilgan mulohazalarni umumlashtirish (sintezlash).

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish qonuniyati nuqati nazaridan o'rganilganda ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy qarashga ega bo'lishi, o'z bilimlarini bayon eta olishi, shaxsiy yondashuvlarini himoya qila olishining o'zigina etarli emas. Eng muhimi u ijtimoiy sub'ektlar orasida yashash va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini o'zlashtira olishi muhimdir. Interfaol ta'limning eng muhim afzalligi ana shu holatni yuzaga keltirishdan iboratdir.

An'anaviy ta'lim shaxsda ijtimoiy malakalar o'z-o'zidan shakllanadi degan xulosaga mavjud. Biroq, "o'z-o'zidan shakllanadigandek" ko'rinadigan bu jarayon ham muayyan qonuniyatlar asosida ro'y beradi, SHaxsning atrofdagilar bilan turli yo'nalish va mazmundagi aloqaga kirishgan chog'ida o'zining qanday tuta olishi, maqsadini anik va ravshan ifodalay bilishi, talab etilayotgan xatti-harakatlarni to'la va samarali uddalay olishi, eng muhimi, vaziyatni to'g'ri baholagan holda o'rinli harakat qila olishi uchun ham muayyan bilim hamda tajribaga ega bo'lish zarur.

Bir soʻz bilan aytganda, ijtimoiy munosabatlarning samaradorligi shaxsning atrofdagilar bilan aloqa (munosabat)ga kirisha olish, hamkorlik qilish, maqsadlarni aniqlashtirishi, maʼlum rejaga ega boʻlishi, kelib chiqish ehtimoli boʻlgan muammo (ziddiyat)larni hal qilish chora-tadbirlarini belgilash qobiliyatiga ega boʻlishni taqozo etadi.

Ustaning malakasini u ishlagan asbob-uskunalar bilan baholash mumkinligi barchaga ayon. Oʻqituvchining ish quroli didaktik vositalar boʻlib, taʼlim jarayonida ulardan qay darajada samarali foydalana olishi uning mahoratini, kasbiy malakasining darajasini baholashga imkon beradi. Didaktik vositalardan oʻqituvchilar turlicha: ayrimlar samarali, faol, oson va oʻrinli, ayrimlar esa samarasiz, sust, qiyin va oʻrinsiz foydalanadilar. Deylik, ombur bilan ham mix qoqish mumkin. Biroq bu ishni bolgʻa bilan bajarish, bunda, shuningdek, bolgʻalarning oʻlchami va tuzilishini ham inobatga olish mixning sifatli, oson, toʻgʻri qoqilishini taʼminlabgina qolmay, ishning tez, hech qanday qiyinchilik yoki muammosiz (mix qiyshayib ketishi mumkin) bajarilishini taʼminlaydi. Shu sababli azal-azaldan ish quroli etarli, soz va tartibli boʻlsagina, u mohir sanaladi. Xuddi shuningdek, etarli darajada didaktik vositalar bilan qurollangan va ularni oʻz oʻrnida, mahorat bilan qullay oladigan tarbiyachini ham malakali hisoblash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maxsus taʼlim oʻqituvchilarini innovatsion faoliyatga, xususan, korreksion-pedagogik jarayonni zamonaviy interfaol usullar asosida tashkil etish jarayonining samaradorligi taʼlim beruvchi tomonidan oʻquvchilarning maqsadi, qiziqishi va muammolari, cheklangan imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil eta olish koʻnikmalarini egallaganlik darajasiga bogʻliqdir.

## **II.BOB. YORDAMCHI MAKTABLARDA O'QUV PREDMETLARINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING DIDAKTIK AHAMIYATI**

### **2.1. Yordamchi maktab o'quv predmetlarini o'qitishning texnologik asoslari va ularning didaktik ahamiyati**

Pedagogik texnologiya nazariyasining muhim jihati - bu har bir pedagogning o'z imkoniyati darajasida, shuningdek, turli yoshdagi ta'lim oluvchilarning muhim xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning o'quv faolliklarini oshirish maqsadida ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuvlardan, interfaol metodlardan samarali foydalana olishi hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya nazariyasining metodologik asoslari, pedagogik texnika nazariyasi g'oyalarini ta'lim tizimiga tatbiq etish, jumladan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida pedagogik texnologiyaning individuallashtirilgan tizimini qo'llash, malaka oshirish jarayonida o'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash masalalari A.A.Abduqodirov, N.N.Azizxo'jaeva, V.P.Bespalko, V.I.Bogolyubov, R.Gan'eva, M.T.Jumaniyozova, F.S.Keller, Guzeev V.V. M.V.Klarin, U.N.Nishonaliyev, M.O.Ochilov, A.Romishevskiy, N.Saidahmedov, V.Slastenin, B.Farberman, O'.Q.Tolipovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Interfaol metodlar va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli hamda ahamiyati Z.Ahrorova, S.Boyoqulov, A.SH.Jumayev, SH.Mamarajabov, E.Mamatqulov, B.Mirzaxmedov hamda G.Esonovalarning ishlarida o'rganilgan.

L.A.Boykova, I.P.Ivanov, L.K.Grebenkina, V.YU.Pityukov, G.K.Selevko va N.E.Shurkovalarning tadqiqotlarida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish, pedagog kadrlar kasbiy malakalarini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni, roli va ahamiyati, jamoaviy-ijodiy faoliyatni tashkil etish texnologiyasining mohiyati ochib berilgan.

Pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlarini bevosita maxsus ta'lim tizimiga tatbiq etganda tamoyillarning o'rni seziladi.

Chunki korrektsiya pedagogikasining himoyalovchi harakterdaligi bois, uning o'ziga xos tamoyillari mavjuddir. Demak, endi biz maxsus ta'lim tizimida pedagogik texnologiyaning mazmunini sharxlashdan oldin me'yorda rivojlanayotgan bolalar ta'limi – pedagogika va uning maxsus–korrektsion pedagogikadan farqli o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'tmog'imiz lozim. Ma'lumki, ta'lim olish - me'yorda (sog'lom) rivojlanayotgan har bir inson uchun tabiiy va ijtimoiy ehtiyoj dir. Ta'lim jarayonining turlari va mazmuni ta'lim oluvchilar yoshi, ko'zlagan maqsadlari va motivlari bilan farqlanadi. Bu borada sog'lom va alohida yordamga muhtoj bolalar orasidagi ta'lim olish farqlarini sanab va ta'lim olish jihatidan an'anaviy va innovatsion shakllarda maxsus ta'limni tashkil etish hamda amalga oshirishdagi o'ziga xos farqlar asosida o'qitish jarayoni qanday tashkil etilishi lozimligini ko'rib chiqamiz.

| <b>Ta'limning tarkibiy qismlari</b> | <b>Maxsus ta'limda An'anaviy shakl</b>                                                                                                                                                                                                                                                                  | <b>Innovatsion shakl</b>                                                                                                                                                                                                         |
|-------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'qitish muhiti                     | Formal, Musobaqa, Ishonchning etishmasligi, ya'ni "o'qituvchichalik bilmayman", gapirishdan qo'rqish yoki xato qilib qo'yishdan uyalish (nogironlikning umumiy rivojlanishdagi keltirib chiqqan ikkilamchi kamchi-liklar natijasida ta'limdan orqada qolishlikka tabiiy xol sifatida qarash) Baho uchun | Samimiy, Noformal, Hamkorlikka asoslangan Ishonch, O'zgalar tajribalarini xurmat qilish, cheklangan imkoniyatlarning o'zaro yordam asosida qoplanishi, barchaning ishtiroki kutiladi, tabaqalashgan holda natijalar belgilanadi. |
| Rejalashtirish                      | Mutassaddi tashkilotlar, O'qituvchi javobgar                                                                                                                                                                                                                                                            | Nogiron bolaning o'zi, oilasi va ta'lim beruvchilarning umumiy javobgarligi                                                                                                                                                      |
| Talab qo'yish                       | O'qituvchi javobgar va u vaziyatni o'zgartiradi                                                                                                                                                                                                                                                         | Nogiron bolalarning turfa imkoniyatlari darajasida va ta'lim beruvchining maqsadi, qiziqishlari uyg'un holda talab qo'yiladi.                                                                                                    |
| Maqsad va vazifalar                 | O'qituvchi belgilaydi                                                                                                                                                                                                                                                                                   | Nogiron bolalar, ota-onalar, pedagogik jamoa hamkorligi asosida                                                                                                                                                                  |
| O'qitish                            | O'qituvchi dasturlar asosida o'qitadi                                                                                                                                                                                                                                                                   | O'quvchining imkoniyatlari ta'limga emas, balki ta'lim o'quvchining imkoniyatlariga moslashtirilgani bois vazifalar xilma-xil va shuning uchun loyihali o'qitish ehtiyoj i mavjud bo'ladi                                        |
| O'qitish uslublari                  | Sinf bilan yalpi va individual yondashuvli                                                                                                                                                                                                                                                              | Interfaol :guruhlarda ishlash, rolli o'yin, o'quv munozara, debat, mini ma'ruza, aqliy xujum, individual refleksiya, eksperiment. Loyixali , Modulli ...                                                                         |
| Baholash                            | O'qituvchi baholaydi Me'yor va baholarga asosan                                                                                                                                                                                                                                                         | o'quvchilar egallagan bilim ko'nikma va malakalarning amalda qo'llashlariga erishish yuzasidan mezonlar bo'yicha baholanadi.                                                                                                     |

Alohida yordamga muhtoj bolalarni o'qitishda korrektsion-pedagogik jarayon interfaol usullar asosida faollikka undovchi, har bir fikrni qadrllovchi, tajribalarni tahlil qilib, keragini qo'llovchi sifatida tashkil etilsa, bolalar har bir yangi mavzuni tanqidiy o'rganish asosida qabul qiluvchi faol ishtirokchi maqega ega bo'ladi, ya'ni "men nogiron bo'lganim uchun shunchalik bilishim kerak" emas, balki "imkoniyatlarim cheklangan bo'lsada, shularni bila olaman, eplay olaman" munosabatidagi faoliyat muallifiga aylanadi. Quyida nogiron bolalar bilan ishlashda an'anaviy va innovatsion ta'lim jarayonini tashkil etishdagi farqli jihatlarni keltiramiz.

| <b>Shartlar</b>        | <b>An'anaviy</b>                                                       | <b>Innovatsion</b>                                                                                       |
|------------------------|------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| O'quvchi               | Vaziyatga tobe                                                         | Mustaqil va o'zini-o'zi nazorat qiladi                                                                   |
| O'quvchining tajribasi | qabul qilinadi, tahlil qilinadi                                        | O'qitish manbalaridan biri sifatida ishlatiladi                                                          |
| Jarayonga tayyorgarlik | Yoshi, imkoniyatining cheklanganligi va rivojlanish darajasiga bog'liq | Maqsadi va faoliyati va xayotidagi muammolari bilan bog'liq                                              |
| Yo'nalish              | Fanga yo'naltiriladi, ya'ni fundamental bilimlar berish uchun          | Ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi uchun maqsadi va bu yo'ldagi muammolari, ehtiyoj iga yo'naltiriladi |
| Rag'batlantirish       | O'qituvchi baholaydi                                                   | Erishgan hayotiy ko'nikmalariga nisbatan o'quvchining o'zini o'zi va o'rtoqlarining bahosi               |

Alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagi tamoyillar asosiy o'rin egallaydi:

- topshiriqlar dastlab o'quvchining imkoniyatlari darajasida fikrlash qobiliyatini rivojlatirishga beriladi;
- jarayon oddiydan murakkabga, umumiylikdan xususiylikka tomon boradi;
- o'zidagi kemtik jihatlardan uyalmaslik;
- jamoada ishlaganda "men kontseptsiyasi" dan qochish;
- o'rtoqlarining yordamini qabul qilish va o'zgaga yordamga shay turish;
- hamkorlikda ishlaganda fikr yakdilligiga erishishda murosali bo'lish.

Sanab o'tilgan tamoyillar asosida quyidagi qoidalarga rioya qilish talabi qo'yiladi:

- fikr tug'ilganda qo'l ko'tarib gapirish;
- intizom: dars va mashg'ulotlarga kech qolmaslik, jamoada o'zini tutish, umumqabul qilingan me'yorlarga rioya qilish;
- o'zgalarni tinglash;
- muammo doirasida gapirish- fikr konkretligi;
- makon va zamon qoidalariga rioya qilish;
- faol ishtirok etish;
- o'zgalarga yordam berish;
- ijodkor bo'lish;

O'qitishning zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishda maxsus ta'lim muassasalarining rahbar xodimlari, o'qituvchi va tarbiyachilarining ushbu usullarga muammoga qaragandek qarashi kuzatildi.

Ya'ni korreksion-pedagogik jarayon ishtirokchilarining aksariyati "Interfaol usullarini nogiron bolalar ta'limida qo'llash unchalik metodik jihatdan kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini bermaydi" kabi fikrda ekanligi aniqlandi. Biroq bunday qarash noto'g'ri albatta. Chunki nogiron bolalar ham sog'lom bolalar singari imkoniyatlar darajasida tashkil etilgan innovatsion-korreksion pedagogik jarayonda ishtirok etish imkoniyatiga egadirlar. Shuning uchun o'qituvchilarga yangilik yoxud mazmuni va tarkibi jihatdan egallanishi qiyin tuyulgan zamonaviy texnologiyalarni anglashi, muammoni echimini topishi uchun quyidagi bosqichlarda faoliyat olib borishini tavsiya etiladi va bu bosqichlar amaliyotda sinovdan o'tdi:

- 1.Mavzu(texnologiya) yoxud usul bilan dastlabki tanishish.
- 2.Texnologiyani tushunish-anglash, his qilish.
- 3.Usulni amalda qo'llash yuzasidan muayyan maqsadni qo'yish.
- 4.Maqsadga erishish uchun strategiyani tanlash.
- 5.Kerakli vositalar, ma'lumotlar bazasini aniqlash.

6. Amalda qo'llash-sinov darslari o'tkazish, metodik kengash yig'ilishlarida himoya qilish.

Ma'lum natijaga erishgan o'qituvchi, tarbiyachi keyingi usul-rivojlangan zamonaviy innovatsiyaning tashkiliy shakllari va vositalaridan foydalanish, yangi tushunchalar, ma'lumotlar va manbalarni aniqlash yo'lida izlanadi. Shu shaklda va mazmunda o'qituvchi raqobatbardosh, zamonbop mutaxassis sifatida faoliyat olib boradi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar ta'limi bo'yicha zamonaviy interfaol usullari asosidagi korreksion-pedagogik jarayonning tarkibiy tuzilmasi puxta va o'zaro uzviy, bir-birini to'ldiruvchi munosabatlarda va oldindan ko'zlangan maqsadga yo'naltirilishi muhim omillardan sanaladi.

Nogiron bolalarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish va pedagogik jarayonni yaxlit tizim asosida nazorat qilish, yo'naltirish, o'z vaqtida metodik yordam va amaliy tavsiyalarni berib borish uchun quyidagi "O'quvchilar bilimi, faoliyatini nazorat qilish, jarayonning o'quvchilar ongida saqlanishiga erishish uchun muddatli ta'limiy muhokama"ni tavsiya qilamiz. Ushbu ta'limiy muhokama har bir mashg'ulotda va mashg'ulotning mustaqil bir bosqichi nihoyasida o'tkaziladi. Uni quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.

Ta'limiy muhokama sikli:

1. Mashq yoki usul qo'llanilgandan so'ng, harakat nixoyasida.
2. O'quvchilarning hissiyotlari, kechinmalari va jarayonga munosabatlarini o'rganish.
3. Nima sodir bo'lganini aniq, real faktlar bilan atash, natija kanday, nega? Kanday bo'lishi mumkin edi?.
4. Jarayonni qismlari bilan tahlil qilish. Tanqidiy yondashgan holda takliflar berish, ularni asoslash.
5. Barcha ma'lumotlar, tajribalar, jarayon haqidagi fikrlarni umumlashtirish, qaror qabul qilish.
6. O'rgangan, amaliyotda, sinab ko'rgan usulni faoliyatida qo'llashi mumkinligi, rejalari.

Nogiron bolalar ta'limi bilan shug'ullanuvchi pedagoglarga o'rgangan usullarini amaliyotda qo'llaganda nimalarga e'tibor berish kerakligi yuzasidan tavsiyalarga ehtiyoj tug'ildi. Biz o'qituvchi va tarbiyachilar uchun faoliyatda tizimli, samarali ish olib borishlari uchun maslahatlar majmuasini ishlab chiqdik.

Birinchi tavsiya- jarayonga ma'suliyat bilan yaxshi tayyorgarlik ko'ring. Tayyorgarlikning etarli bo'lishi-ishingizdan kutilayotgan natijaga erishishning birinchi va eng ishonchli omili.

Ikkinchi tavsiya-har qanday vaziyatda uning ijobiy tomonini topish va asoslashga harakat qiling. Shunda kuchsiz yoki ishonchsizlarni ergashtira olasiz. Shunda sizni har turli tarkibga ega o'quvchilaringiz tinglaydi.

Uchinchi tavsiya - eng muhimi maqsadinigiz aniq va ravshan bo'lsin. Maqsad aniq belgilansa, ishni tashkil etishning samarali yo'llarini topish, natijaga erishish uchun maqbul mazmun va vositalardan foydalanishga mustahkam zamin yaratiladi.

To'rtinchi tavsiya - jarayonning ko'rgazmaliligiga e'tibor bering. Zero pedagogik texnologiya jarayonida qo'llaniladigan vositalar(og'zaki, yozma, texnikaviy)dan biri ko'rgazmalilikdir.

Beshinchi tavsiya - puxta o'ylangan reja asosida ish olib boring. Reja mavzu va qo'yilgan maqsadga asosan tuziladi. Uni shunday tuzingki, oldindan sinfda yoki shaxs-o'quvchi yoki boshqa sizning psixologik ta'siringizga muhtojlar bilan yakka ishlaganda jarayon davomida oqsab qolish imkoniyatlari ham inobatga olinsin. Shunday muammoli vaziyatlarni vaqtida bartaraf etish yo'llarini va usullarini oldindan rejalashtiring.

Oltinchi tavsiya- adolatli bo'ling. Jarayon davomida o'quvchilardan bildiriladigan fikrlarning eng maqbulini tanlashda va ularga shaxsan murojaatlarni amalga oshirishda neytral xolatda turing.

Ettinchi tavsiya - kerakli tayanch savollarni bering va o'quvchilarni faollikka undang. Shunday ishtirokchilar bo'ladiki, ular sun'iy ravishda siz bilan muloqotga kirishmaslikka harakat qiladi. Shunday vaziyatlarda yo'naltiruvchi savollar berib jarayonni mo''tadil do'stona muhitga aylantiring.

Sakkizinchi tavsiya-mavzudan chetga chiqmang. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, ular lirik chekinishlarni talab etadi. Ushbu chekinishlar ham maqsadli sodir etilishiga ehtiyoj tug'iladi, lekin unda ko'zlangan maqsad mavzuga xos bo'lishi lozim.


To'qqizinchi tavsiya- murosali bo'ling va aniq shatrnomalar haqida unutmang. Chunki Siz sinf o'quvchilari bilan qaysi qoidalarga rioya qilish lozimligi bo'yicha kelishuv tuzgan bo'lasizlar. Siz ham va albatta ishtirokchi ham undan chetga chiqmasin.

O'ninchi tavsiya- jarayonni ijobiy tusda va mazmunda yakunlang. Hammaga va o'zingizga ham omadlar va ushbu jarayonda erishilgan yutuqlarni boshqalarga ham tilagan holda mashg'ulotlarni tugating.

Korreksion-pedagogik ta'lim ishtirokchilari (o'qituvchi va alohida yordamga muhtoj bolalar, ota-onalar, tarbiyachilar ...)ni innovatsion faoliyatga tayyorlash va uni samarali tashkil etish, natijalarni kafolatlashda jarayon ishtirokchilarining qiziqishi va maqsadining umumiy bo'lishi asosiy shartlardandir.

Maxsus ta'lim pedagog xodimlarining pedagogik texnologiyalar bilan ish olib borishlaridan oldin ular ushbu yo'lni tanlash asosida qanday natijaga, ya'ni ta'lim oluvchi kaysi imkoniyatlarga erishishi mumkinligini aniq bilishlari lozimligini e'tirof etgan holda pedagogik texnologiyalar natijalarini keltiramiz.

J.G'.Yo'ldoshev va S.Usmonov pedagogik texnologiya natijalari uning barcha ishtirokchilariga tegishliligini e'tirof etgan holda, quyidagi sxemada uning eng asosiy ishtirokchilar uchun tegishli jihatlarini ko'rsatib bergan:



Bu sxemadan pedagogik texnologiya natijasining eng asosiy ko'rsatkichini ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi-yo'naltiruvchi uchun raqobatbardoshlikni ta'minlash ekanligi ko'rinib turibdi. Ularning raqobatbardoshligiga erishish orqali esa maktabning, pedagogik jamoaning raqobatbardoshligi ta'minlanadi. Ushbu pedagogik texnologiya natijalarining maxsus ta'limga moslashtirilishi asosan, nogiron bolalarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi, muayyan kasb turini egallashi, o'z xayotiy ehtiyoj larini o'zgaga muhtoj bo'lmasdan qondira olish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maxsus ta'lim o'qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyor bo'lishi yoki shu yo'nalishda faoliyat olib borishi:

- nogiron o'quvchilarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida zarur ko'nikma va malakalarini rivojlantira oladigan, ularni kelajakka yo'naltira oladigan;

- o'quvchilarni jamiyatga foydasi tegadigan, o'z ehtiyoj larini o'zgaga mute bo'lmasdan qondira oladigan mustaqil shaxs sifatida tayyorlay oladigan;

- ta'limni o'quvchilarning yoshi va ruhiy xususiyatlari, cheklangan imkoniyatlariga mos va xos usullar yordamida takomillashtira oladigan;

-nogiron bolalarni jamiyatda yuz berishi mumkin bo'lgan ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga, o'zgalarga doim murosali bo'lishga, barkamol shaxs, komil inson etib shakllanishida o'z mavqei va ma'suliyatini his qiladigan zamonaviy, yangiliklarga moyil va moslashuvchan mutaxassis sifatida rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Maxsus ta'lim o'qituvchilari bilan interfaol usullar asosida pedagogik jarayonlarning amalga oshirilishi bo'yicha ish tajribalarning samaralari o'qituvchilarning egallagan har bir usulni bevosita maktab ta'limida-darsda, u yoki bu fanni o'qitishda qo'llay olishida ko'rinadi.

## **2.2. Pedagogik texnologiyalarni ta'limga to'g'ri tadbiq etishda maxsus maktab-internat o'qituvchi – tarbiyachilari malakasiga qo'yiladigan talablar**

Hozirgi zamon ta'lim-tarbiya amaliyotida ustivorlik qilayotgan an'anaviy o'qitish ta'lim oluvchilarni yalpi o'qitishni va ularning bilish faoliyati passiv tinglovchi sifatida tashkil etilishini ko'zda tutadi. Ta'limiy jarayonni olib borishda imkoniyati o'rtacha baholanadigan ishtirokchi mo'ljalga olinadi, ishtirokchilarning faolligi, mustaqilligi e'tibordan chetda qoladi. Jarayon markazida ta'lim beruvchi sub'ekt sifatida turadi va uni boshqaradi.

An'anaviy o'qitish texnologiyasi asosan “o'qituvchi-o'quvchi” munosabatida amalga oshirilib, o'quvchi pedagogik jarayonning passiv ishtirokchisi, ya'ni ob'ekti sifatida mazmun kasb etadi.

Har qanday ilg'or pedagogik texnologiya “o'qituvchi - jarayon - o'quvchi” munosabatida tashkil etilib, ya'ni pedagogik jarayon kesimida ham o'qituvchi, ham o'quvchi bir chiziqda faoliyat olib boradi. Ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim jarayoni tashkil etilganda, ta'lim oluvchi o'zi izlashnisha, muammoning echimini o'zi topishga, o'zi mantiqiy fikr yuritib, yakdil qarorga kelishiga sharoit yaratiladi. Bunda ta'lim beruvchi: boshqaruvchi, yo'naltiruvchi, tashkil etuvchi, kuzatuvchi, yordam beruvchi, nazoratchi sifatida moxirlik bilan pedagogik jarayonda ishtirok etadi.

Davlat talablari asosida nogiron bolalar ta'limi va tarbiyasi jarayonini tashkil etishga qaratilgan hozirgi kundagi pedagog faoliyati, uning metodik mahoratini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan shakllantirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirish lozim:

Alohida yordamga muhtoj bolalarni pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish mazmuni bilan tanishtirish va malakalarini oshirib borish zarur. Buning uchun :

- Malaka oshirish jarayonida maxsus maktab-internatlari o'qituvchi tarbiyachilarining malaka oshirish kurslari davomida egallashlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni bilish;

- Belgilangan talablarga erishish yuzasidan malaka ishlarini bajarish uchun reja tuzish.

- Malaka oshirish kurslarida malaka ishlari shaklida fanlar bo'yicha dasturlardan kelib chiqib, mashg'ulot ishlanmalari tuzish.


Malaka ishlarining bajarilishi tartibini guruhlarda tasdiqlash.

- Malaka ishi rejasini talab va ehtiyojni tahlil qilish asosida takomillashtirish.

- Malaka ishi yuzasidan ma'lumotlarni tayyorlashning pedagogik mexanizmini bilish.

- Malaka ishlari tahlil qilib, o'z faoliyatingizga kerakli tavsiyalarni to'plash lozim.

Malaka ishlarini tanlash va bajarish yoki fanlar bo'yicha dars ishlanmalarini tuzishda taxminiy tayanch tuzilmani tavsiya etamiz. Uni quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.



Mazkur vazifalar orqali:

- Maxsus ta'lim ishtirokchilari (MTI)ning kasbiy tayyorgarligini orttirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish;

- Amaliyotda zamonaviy va axborot texnologiyalarini qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilimlarini shakllantirish, ko'nikmalarini tarkib toptirishga erishish;

- MTI larining o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish;

- Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, o'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan ta'limni tashkil etishga ko'maklashishi;

- MTI larini zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari bilan tanishtirish va bevosita ishtiroki asosida ularni yangi pedagogik texnologiyalar yaratish va o'zlashtirish yuzasidan maqsadli innovatsiya loyihalarida qatnashishga tayyorlash.

MTI larini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida faoliyat yuritishga tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berilishi lozim:

1. Malaka oshirish davomida pedagogik jarayonning zamonaviy pedagogik(individuallashtirilgan, muammoli, hamkorlikda, modulli, loyihalash va didaktik o'yinlar va x .k. lar) va axborot texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish.

2. Tinglovchilarning mustaqil va ijodiy ishlarini samarali tashkil etish.

3. Tinglovchilarning malakasini oshirishning bosqichma-bosqich tashkil etilishini nazorat qilish (malaka oshirishgacha, malaka oshirish davomida va istiqbolda)

4. Tinglovchilarning maqsadli ijodiy izlanishlarini tashkil etish.

Quyidagi o'qitish texnologiyalaridan foydalanish yuzasidan ma'lumotlar keltiriladi:

1. Hamkorlikda (guruhaviy) o'qitish.

2. Individual o'qitish.

3. Modulli o'qitish.

4. Interfaol usullar asosida o'qitish.

O'quv mashg'ulotlarini hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodalaridan foydalangan holda tashkil etilishi:

1. O'quvchilarning o'quv – bilish jarayonining sub'ektiga aylantirish, mazkur texnologiyalarga asoslangan holda tashkil etilgan mashg'ulotlarning faol

ishtirokchisi bo'lishi natijasida mazkur ta'lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishini tahlil qilishi, o'z pedagogik faoliyati uchun zarur bo'lgan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini egallashi va rivojlantirishiga imkon yaratish, malaka oshirish kurslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanishga zamin tayyorlaydigan dars ishlanmalarini loyixalash va amaliyotga qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilish, har xil muammoli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va undan chiqishning eng muqobil yo'lini tanlash ko'nikmalarini egallashga erishildi.

2. Tarbiyalanuvchilar bilan o'tkazilgan mashg'ulotlar, avvalo ular o'rtasida o'zaro hamkorlikning vjudga kelishiga, ularning maqsadli ijodiy faollikka va aniq maqsadga yo'naltirishga imkon yaratadi.

3. Mazkur jarayonda tarbiyalanuvchilarda taxsil olishga va ijodiy izlanishga bo'lgan qiziqishi ortadi, bilimlarini chuqur o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi, o'quv faoliyatning yangi usullarini egallash, o'rganilgan va tahlil qilingan mashg'ulotning matnini chuqurroq anglashga bo'lgan barqaror intilish paydo bo'ladi.

4. Tarbiyalanuvchilarda mustaqil va ijodiy izlanish orqali o'zlashtirgan bilimlariga asoslangan holda mavzu yuzasidan o'tkazilgan o'quv baxsi va munozaralarda faol ishtirok etish, o'z fikrini bayon etish, asoslashga intilish paydo bo'ladi.

5. O'quv mashg'ulotlarida tarbiyalanuvchilarning o'quv-ijodiy topshiriqlarni to'la-to'kis bajarishi orqali yangi ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritishi, har bir yangi vaziyatda yutuq va natijalarga erishishiga intilishi, o'z bilim, ko'nikma va malakalarini har doim rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj ini muntazam ravishda orttirishga erishiladi.

6. Tarbiyalanuvchining bilish faoliyati kichik guruhlarda mustaqil va ijodiy izlanish asosida tashkil etilishi shaxsning o'quv ijodiy faoliyatda etakchi bo'lishga intilishi, yangi o'quv-ijodiy faoliyatni birgalikda tashkil etish, guruh a'zolarini o'z orqasidan ergashtirish, vazifalarni o'zaro taqsimlash, o'zaro yordam uyushtirish layoqatini rivojlantirish, shaxsning o'zligini nomoyon etish, o'z bilimi va

qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustaxkamlash, guruhda etakchi bo'ishga erishishga sharoit yaratiladi.

Individuallashtirilgan ta'lim- o'qitish shakli, o'qitish jarayonini tashkil etishning modeli bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega.

1. Ta'lim beruvchi har bir ishtirokchi bilan yakka ishlaydi.

2. Har bir ishtirokchi o'zi qiziqtirgan muammo va qiziqishlari va ehtiyojlari hisobga olingan paketlarga ega bo'lib, ushbu paketlar kursdan oldin tayyorlangan bo'ladi.

Ushbu individual ta'limning afzalligi ishtirokchilarning ta'lim olish jarayonini tashkil etish, ta'lim mazmuni, vositalari va metodlarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari va ishlash(fikrlash, anglash, umumlashtirish, amalda qo'llash) tempining tezligiga moslashtirilganligi bilan tavsiflanadi.

O'qitishni individuallashtirish texnologiyasining quyidagi xususiyatlari mavjud. Bunda ta'lim beruvchi:

- ishtirokchilarning malakasini oshirish faoliyatini tashkil etish, uning mazmuni, vositalari, metodlari va uslublarini tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari, muammolari, ehtiyojlari hisobga oladi;

- individual o'qitishni tashkil etishning o'quv-metodik, pedagogik-psixologik va tashkiliy shart-sharoitlarini oldindan rejalashtiradi.

Ma'ruzalarni munozara asosida o'tkazishni quyidagicha tavsiya qililinadi.

Tarbiyachi o'z ma'ruzasini bir necha muhim bo'limlariga bo'lib, 15-20 daqiqa davomida ma'ruzadan to'xtaydi. Ma'ruza davomida ayrim muammolar xususida savollar berib boradi. Bu bo'lim tugallangach, ma'ruza davomida bu ma'lumotlarga befarq qaramay, o'z fikrlarini aytmoqchi bo'lgan ishtirokchilarga imkon beradi.

So'ngra sekin-asta ma'ruzaning davomi sifatida ularni birma-bir suhbatga tortadi. 3-5 daqiqa munozara bo'lgach, tinglovchilar faolligi oshib borganiga ishonch hosil qilgach, ma'ruzani davom ettiradi. O'quvchilarda befarqlik o'rniga qiziqish, bilimdonlik sezila boshlaydi.

Ma'ruza davomida mavzuni sekin-asta o'quvchining hayotiy tajribasiga bog'laydi. Bu holda kechgan ma'ruza vaqt qanday o'tganligini bilmay qolishga olib keladi. O'quvchilarni xushyorlikka, ichki intilishga, o'zini ozroq bo'lsa ham hissa qo'shishga chorlaydi. Bu kabi ma'ruzalar har ikki tomonning faolligini oshiradi, navbatdagi munozaralarga chaqiradi. Davra suhbatlari guruhlariga bo'lib o'tkazilsa qiziqarli va samarali o'tadi. Quyida Sizning faoliyatingizga aloqador mavzuda taxminiy munozara rejasini tavsiya qilamiz.

“Ta'lim samaradorligini belgilovchi shart-sharoitlar” mavzusiga taxminiy munozara rejasini.

1. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik jamoa va o'qituvchi o'quvchi munosabatlarining psixologik xususiyatlari nimadan iborat?

2. Maktabda jamoalar ruxiyatini sog'lomlashtirish va profilaktika ishlari qanday olib borilishi kerak?

3. Maktabda do'stona muhitni yaratish omillari.

4. Kasb xunarga yo'naltirish ishlari tashkil qilish tajribalari

5. Pedagogik jamoada mo'tadil psixologik iqlim, ko'tarinki kayfiyat hosil qiluvchi sharoitlarni tashkil qilish usullari.

6. O'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda tarbiyachining roli va maktabdagi shart-sharoitlar.

7. Ota-onalar bilan hamkorlik.

Ushbu reja asosida munozara tizimli savollar yordamida har bir bildirilgan fikrni inobatga olgan va tahlil qilgan holda o'tkaziladi.

Munozaraning ahamiyati shundaki,

-ishtirokchilar faolligi oshadi;

-ishtirokchilarning reja asosida ma'lumotlarni topish, tahlil qilish, to'plash orqali axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari rivojlanadi;

-ishtirokchilar kasbdoshlarining ilg'or tajribalarini o'zlashtiradilar, tajriba almashadilar;

-ishtirokchilar jarayon davomida istiqbol rejalarini oldindan prognoz qila oladigan bo'ladilar.

### **2.3. Maxsus ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarining o'ziga xosligi**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p karra takrorlanadi. Pedagogik texnologiyalarning o'zi nima va u an'anaviy ta'lim metodlaridan nimasi bilan farqlanadi?

Hozirgi kunda pedagogik adabiyot, ta'lim muammolariga oid ma'ruzalar, rasmiy hujjatlarda "yangi pedagogik texnologiya", "ilg'or pedagogik texnologiya", "zamonaviy pedagogik texnologiya" iborolari keng qo'llanilmoqda. Ammo "pedagogik texnologiya" tushunchasi hali ham bir qolipga tushirilmagan, qomuslarda izohlanganicha yo'q, uning mazmunini yagona talqini ishlab chiqilmagan va shuning uchun iboraning bir-biridan farqlanuvchi ko'pgina ta'riflari mavjud. Bularning orasida e'tiborga loyiqrog'i YUNESKO ta'rifidir: "Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning o'zaro aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir".

Bu ta'rifdagi asosiy tushunchalar "tizimli uslub" ekanligi ravshan, qolgan barcha so'zlar pedagogik texnologiyaning tizim sifatidagi tarkibiy qismlarini ifodalaydi. Aynan tizimli yondoshuv pedagogik texnologiyani o'qitishga boshqa yondashuvlardan farqlovchi asosiy belgi hisoblanadi. Ta'lim maqsadlari, uning mazmuni, o'qitish va ta'lim berish uslublari, nazorat va natijalarni baholashni o'zaro aloqada va bir-biri bilan bog'liqlikda loyihalash - ko'pincha an'anaviy o'quv jarayonida etishmaydigan narsalardir. Masalan, ko'p hollarda ta'lim, asosan, axborotni eslab qolishga yo'naltirilgan, ta'lim oluvchining bo'lajak faoliyati esa muayyan ishlarni bajarish yoki tashkiliy, boshqaruv va kasbiy qarorlarni qabul qilish bilan bog'liq bo'ladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishdagi eng ma'suliyatli, katta tayyorgarlikni talab etadigan usullardan biridir. Ushbu usul asosida olib boriladigan jarayonda tinglovchi individual va guruhda ishlash orqali maqsadga erishishi ko'zda tutiladi.

Guruhlarda ishni tashkil etishda quyidagi ketma-ketlikka rioya qilinadi:

1. Ishtirokchilar mavzuning maqsadi va vazifalari bilan tanishadilar.
2. Ishtirokchilarning jarayonda tutgan o'rnini va xuquqlari instruktsiyalar ko'rinishida taqsimlanadi.
3. Guruhlarga ajratilganda o'zaro hamkorlikka chaqiriladi.
4. Guruhlarning muammo yuzasidan chiqargan xulosalari tahlil etiladi va ular guruh a'zolari tomonidan taqdimot qilinadi.
5. Chiqarilgan xulosalarning yakdil qaror ko'rinishida qabul qilish.
6. Qo'llanilgan usulning psixologlar amaliyotida qo'llanilishi yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Biz ushbu usulni uch bosqichda olib borish maqsadga muvofiq deb topdik va ular quyidagilar:

Birinchi bosqich. Bu bosqich ta'lim beruvchining jarayonga tayyorgarligi bilan tavsiflanadi, ya'ni ishtirokchilarni oldindan o'rganish, muammoli vaziyatlar sodir bo'lishi mumkinligini bilgan holda alternativ usullarni tayyorlab qo'yish, jixozlar va joyni tayyorlash.

Ikkinchi bosqich. Jarayonning amalga oshirilishi, ya'ni guruh ishini tashkil etish, muammoni o'rtada xal etish yo'llarini ishlab chiqish va eng maqbulini tanlash.

Uchinchi bosqich. Bu bosqichda ishtirokchilar bilan suhbat asosida ta'limiy muhokama o'tkazish, ya'ni *nima sodir bo'ldi?, kim qanday ishtirok etdi?, kim dominantlikka harakat qildi?, kim o'zini erkin his qilmadi? Qanday bo'lishini xoxlar edingiz?* kabi savollar bilan ishtirokchilarning hissiyotlari o'rganiladi. So'ngra barcha ishtirokchilarning fikrlari eshitilib bo'lgach, yakuniy to'xtamga kelingan flipchart qog'ozdagi xulosalar o'qib eshittiriladi va guruhlarga minnatdorchilik bildirilib, mashg'ulot yakunlanadi.

Ushbu usulning olib borilishi yuzasidan quyidagi mavzu asosida mashg'ulot ishlanmasini keltiramiz.

Mavzu: "Alohida yordamga muhtoj (kar, ko'zi ojiz, nutqida nuqsoni bo'lgan, tayanch harakati muvozanati buzilgan..) o'quvchilarning psixologik xususiyatlari".

**Maqsad:** Tinglovchilar turli yoshdagi va turli nogironlikka mansub o'quvchilarda uchraydigan ijobiy va salbiy psixologik xususiyatlarning tarkib topish sabablarini aniqlashga, psixokorreksiya usullarini tanlashga, muammoga oid tajribalarini amalda qo'llashga o'rganadilar.

**Jixozlar:** flipchart qog'ozlar, markerlar, skotch, A 4 formatdagi qog'ozlar, ishtirokchilarni guruhlariga ajratish uchun tayyorlangan kartochkalar.

**Jarayonning borishi:**

1-qadam. Ishtirokchilarning kurs davomidagi kayfiyatlari so'ralgan holda jarayonga diqqati tortiladi. Mazmuni yopiq tarzda kartochkalardan olish taklif etiladi.

2-qadam. Ishtirokchilar qo'llaridagi kartochkalardagi mazmunga oid boshqa ishtirokchilardagi mazmunni o'rgangan holda birlashib, auditoriyada guruhlar tashkil etiladi.

*Eslatma:* Guruhlarda ishtirokchilar soni kami 5, ko'pi bilan 7 nafardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

3-qadam. Olib boruvchi topshiriq beradi. Topshiriq:

2 daqiqa ichida guruhingizga nom bering va nima uchun shunday nomlaganinigizni izoxlang (ushbu instrumentning qo'llanilishi muximligi shundaki, ish natijalarini e'lon qilganda guruhning nomini aytishga ehtiyoj tug'iladi, aks holda "Mana bu o'tirganlarning" yoki "Mening chap tomonimdagilarning" yoki yana boshqa iboralar bilan murojaat qilishga to'g'ri keladi).

4-qadam. Guruhlarga topshiriq beriladi. Topshiriq.(masalan "Intelekt", "Progress", "Iqtidor" kabi nomli guruhlar.)

Har bir guruhga alohida mazmunda topshiriq beriladi. Topshiriqlar olib boruvchi-trener qo'lida yopiq holda kartochkada yozilgan bo'ladi. Guruh o'z liderini saylaydi. Lider chiqib, ixtiyoriy tarzda topshiriqdan birini tanlaydi.

"Intelekt" guruhiga berilgan topshiriq mazmuni quyidagicha.

*Turli nogironlikka mansub maktab yoshidagi o'quvchilarda ruhiy zo'riqish alomatlari va ularni oldini olish va bartaraf etish usullarini keltiring.*

"Progress" guruhiga berilgan topshiriq mazmuni quyidagicha:

*Turli maktab yoshidagi iqtidorli nogiron o'quvchilarni aniqlash va ularni yo'naltirish usul hamda yo'llarini keltiring.*

“Iqtidor” guruhiga berilgan topshiriq mazmuni quyidagicha:

*Nosog'lom turmush tarziga moyil bolalarni aniqlash va ular bilan psixokorreksiya ishlarini olib borish yuzasidan tavsiyalariningizni keltiring.*

5-qadam. Guruhlarga topshiriqni bajarish uchun reglament belgilanadi. Ularga o'z fikrlarini yozishi uchun qoralama varog'lar tarqatiladi. Qoralamaga yozilgan fikrlarining yakdilligi va to'g'riligiga ishonch hosil qilganlaridan so'ng ularga flipchart qog'ozi tarqatiladi.

6-qadam. Guruhlar o'z ishlarini tugatgach yoki vaqt bo'lgach, olib boruvchi jarayonni to'xtatishlarini so'raydi.

7-qadam. Guruhlar o'z ishlarining taqdimotini o'tkazadilar.

Eslatma: shu o'rinda guruh a'zolarining o'zlariga “to'ldiruvchilar bormi?” savoli bilan murojaat etiladi.

8-qadam. Boshqa guruhlar uchun ushbu taqdimot o'tkazgan guruh ishi yuzasidan e'tiroz yoki savol yoki takliflar borligi so'raladi. Agar bo'lsa, taklif kiritiladi, e'tiroz bildiriladi, munozarali ma'lumot bo'lsa, savol berib aniqlashtiriladi. Ularni qabul qilish guruh ixtiyorida bo'ladi.

Eslatma: Shu o'rinda guruhlar o'rtasida munozarali vaziyatlar sodir bo'lishi mumkin. Bunda ekspertlar guruhi oldindan tayinlangan bo'lsa, ularga murojaat qilinadi, agar ekspertlar guruhi tayinlanmagan bo'lsa, unda trener o'zi eng maqbul va to'g'ri javobni tanlashi lozim va uni ilmiy asoslab, noto'g'ri talqin etgan ishtirokchining fikrini keskin rad etmagan holda “*buni yana bunday izoxlash mumkin*” yoki “*bu har xil vaziyatda har xil natija berishini inobatga olib, buni bunday talqin qilish mumkin*” kabi iboralar bilan jarayonni yo'naltiradi.

9-qadam. Ta'limiy muhokama o'tkaziladi. Olib boruvchi-trener har bir guruh bilan alohida suhbat olib boradi. Buning uchun xamma auditoriyada yarim doira bo'lib o'tirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, “Intelekt” guruhi bilan shunday tarzda ta'limiy muhokama o'tkazishni tavsiya qilamiz.

1. Ishtirokchilarning ismlarini aytib ularga shaxsan murojaat qiladi. Masalan, SHavkatbek, hozir siz nimani his qilyapsiz?- javoblar( engillik, xursandichilik, noqulaylik ...)

2. Siz jarayonda nimani his qildingiz?

3. Sizni tingladilarmi?

4. Nega deb o'ylaysiz, guruhdoshlaringiz sizning fikringizni inobatga olmadilar?

5. Xech o'ylab ko'rdingizmi, men o'zim tushuntira olmadimmikan deb.

6. Kimning g'oyasi dominantlik qildi?

7. Kimga ko'proq yordam berildi?

8. Kimdan ko'proq yordam kutdingiz va kim sizga beg'araz yordamini berdi?

9. Sizga o'rgatganlarida noqulay bo'lmadingizmi, nega?... kabi savollar bilan har ishtirokchiga murojaat qilinadi.

Ushbu usul tinglovchilarning faol ishtirokchi mavqeidaligini his qilishiga yana imkon beradi, chunki ular o'z qiyinchiliklaridan uyalmagan holda jarayonda ishtirok etishga harakat qiladilar.

10-qadam. Ishtirokchilarga auditoriya bo'ylab sayohat uyushtirish taklif etiladi. Bunda ishtirokchilar o'zlariga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni daftarlariga yozib olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

11-qadam. Trener mavzu yuzasidan ishtirokchilar to'xtab o'tmagan bo'limlari yoki asosiy qismlarini aytib o'tadi. Amaliyotchi psixologlarning shu muammo bo'yicha savollarining barchasiga javob topishi lozim. Agar vaqt jihatdan etishmovchilik bo'lsa, unda shu mavzu yuzasidan ma'lumotlar topishi mumkin bo'lgan manbalar birma-bir ko'rsatib o'tiladi. Biroq adabiyotlar ro'yxati va qisqacha annotatsiyasi trener tomonidan tarqatmali material sifatida oldindan tayyorlangan bo'lsa, yanada ishtirokchilarning manbalarga qiziqishi va muammo atrofida har tomonlama fikr yuritishi uchun imkoniyat yaratilgan bo'ladi.

12-qadam. Ishtirokchilarga ushbu usul ularning faoliyatida qo'llanilishi mumkinmi? va uni o'tkazishda nimalarga e'tibor berish kerak? Savollarga javob tariqasida fikrlari o'rganiladi.

Bu bilan ushbu usulning hayotiyligi, barchaning ishtiroki, faolligi ta'minlanganligi va boshqa xususiyatlarining ishtirokchilar tomonidan tan olinganligiga yana bir bor tavsif beriladi. Maktab, oila, maxalla hamkorligi yuzasidan muammolarning xal etish mavzusi bo'yicha "Rolli o'yin" asosida mashg'ulot olib borish metodikasi. Rolli o'yin usuli qisqa saxnalashtirilgan holda ijro orqali amaliyotda uchraydigan muammolarning asl mohiyatini tushunish uchun sharoit yaratadi. Bunda ishtirokchilar jarayonda bevosita qatnashib, muammoni qalban his etishadilar. Rolli o'yin usuli asosida pedagogik jarayonni olib borishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Jarayonga puxta tayyorlanish:

-tashkiliy jihatdan;

-mazmun jihatdan;

2. Muammolarning mantiqiy va hayotiylikini ta'minlash;

3. Rollarni taqsimlashda ishtirokchilarning potentsiallariga e'tibor berish.

4. Rolli vaziyatlarning oldindan maqsadli tayyorlash.

5. Ishtirokchilar o'ziga tekkan roldan norozi bo'lmasligini oldindan his qilish.

6. Salbiy epizodlarni taqsimlashda tegishli ishtirokchilar bilan oldindan instruktsiya ishlarini olib borishga ulgurish.

Rolli o'yin usulidan foydalanganda ishtirokchilar oldindan pedagogik-ijrochilik muhitiga oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari asosiy shartlardan hisoblanadi.

Quyida ushbu usul asosida olib borilgan mashg'ulot ishlanmasini keltiramiz.

Mavzu: Makta, oila va mahalla hamkorligini takomillashtirish yo'llari.

Maqsad: Tinglovchilar maktab ta'limining to'laqonli amalga oshirilishida asosiy omil hisoblangan- maktab, oila va maxalla hamkorligini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqdilar.

Jixoz: Rollar uchun vaziyatlar yozilgan kartochkalar, ishtirokchilarni guruhlariga ajratish uchun kartochkalar(ishtirokchilarning soni bilan teng tayyorlanadi), flipchart qog'ozlari, A 4 formatli qog'ozlari, markerlar(har bir guruh uchun uch xil rangda), skotch.

Jarayonning borishi:

1 qadam. Ishtirokchilarga yopiq holda kartochkalar tarqatiladi.

2 qadam. Ishtirokchilar guruh hosil qiladilar. Auditoriyada 3 ta guruh hosil bo'ladi. Auditoriyada 25 nafar ishtirokchi mavjud.

3 qadam. Uchta guruhdan ixtiyoriy bir vakil chiqib, oldindan tayyorlab qo'yilgan vaziyatlardan birini olishi taklif etiladi.

4 qadam. Guruhlarga topshiriq beriladi. Topshiriq:

20 daqiqa ichida vaziyatni ijro etishga tayyorgarlik ko'ring.

Birinchi guruhga quyidagi vaziyat topshiriladi:

Oila. Ota-ona va nogiron farzand nonushta qilib o'tiribdilar. Bola maktabga borishdan bosh tortadi. Ota sababini so'rsa, bola uyda qolishini, bolalar uning ustidan kulishlaridan charchaganini aytadi. Ota rozi bo'ladi. Ona noroziligini bildiradi: "Qiziqsiz-a dadasi, yana bormaydimi?, unda meni ota-onalar yig'ilishiga chaqirsa bormayman, siz borasiz".

"Borsam, boraveraman, o'zim tushuntiraman, to'g'ri kelsa, sinf rahbari tushunmasa, direktorga aytaman, o'zi nechanchi sinfda o'qiysan bolam"-deydi ota.

-Axir siz maktab qaerdaligini ham bilmaysizku...

Bola esa otaning ximoyasidan xursand bo'lib o'tiradi.

Ikkinchi vaziyat:

Maxalla guzari. Oqsoqol o'tiribdi. Uni yoniga maxalla ichki ishlar inspektori kelib, Zaif eshituvchi Sobirov Abdulla shu maxalla fuqarosi ekanligi, uning bozorda o'g'irlik ustida qo'lga tushganligini aytadi. Oqsoqol "u kimning bolsai ekan-a, necha yoshda ekan"- deb aytadi. Inspektor bolaning tuman maktab ro'yxatidan ko'chayotganligi sababli 4 oy oldin chiqarilganligini aytadi. Biroq bola shu maxallada yashar ekan. 4 oydan beri 12 yoshli bola maktabga bormay ko'chada sanqib yurganini na oila, na maktab, na maxalla bilmaydi, bu qanaqasi? deb jahl qiladi, inspektor.

Uchinchi vaziyat.:

Maktabda ota-onalar yig'ilishi. Sinf o'quvchisi ota-onasini olib borgisi kelmay, ko'chadan tanishini yig'ilishga olib keladi.

Yig'ilishni olib boruvchi sinf rahbari uning kimligini ham so'ramasdan kun tartibini o'qib eshittiradi.

Kun tartibi:

1. Maktab remonti.

2. Sinf fondini tashkil etish.

3. Maktab mulkiga kim zarar etkazsa, o'shandan chiqimni undirish uchun guruh tuzish.

Hozir shu yig'ilishda qatnashayotganlar roziman deb qo'l qo'yib bersangizlar.

Ushbu vaziyatlarning ijrosini tayorlab bo'lishgach yoki vaqt tugugach, trener jarayonni to'xtatadi.

5 qadam. Tayyorgarlikni birinchi tugatgan guruh birinchi bo'lib, rollio'yinni ijro etib beradi.

6 qadam. Ikkinchi guruh ijrosi.

7 qadam. Uchinchi guruh ijrosi.

8 qadam. Guruhlarga quyidagi jadval tasvirlangan flipchartqog'ozi tarqatiladi:

| <b>№</b>         | <b>Muammoning<br/>moxiyati va<br/>sababi</b> | <b>Muammoni<br/>oldini olish,<br/>echimini topish</b> | <b>Amaliy<br/>tavsiyalarinigiz</b> |
|------------------|----------------------------------------------|-------------------------------------------------------|------------------------------------|
| Birinchi vaziyat |                                              |                                                       |                                    |
| Ikkinchi vaziyat |                                              |                                                       |                                    |
| Uchinchi vaziyat |                                              |                                                       |                                    |

Har bir guruh 25 daqiqa davomida ushbu jadvalni to'ldirish orqali muammolarning moxiyati , echimini topish va oldini olish yuzasidan tavsiyalarini ishlab chiqadilar.

9 qadam. Har bir guruh o'z ishini taqdimot qiladi.

10 qadam. Duskada osilgan 3 ta flipchart qog'ozda ko'p takrorlangan ma'lumotlarni umumlashtirib, yakuniy xulosa qilinadi. Xulosa

“Maktab, oila va mahalla hamkorligini tizimli olib borish mexanizmi” shaklida yakunlanadi va uni ishtirokchilar yozib olishiga imkoniyat yaratiladi.

11 qadam. Hamma birgalikda unumli ishlaganini ta'kidlagan holda trener ta'limiy muhokama olib boradi.

12 qadam. Faol guruhning muvoffaqiyatga erishish sababalari tahlil etilgan holda ular g'olib deb topiladi va rag'batlantiriladi.

13 qadam. Mashg'ulot yakunlanadi

Tarbiyachilarning o'z faoliyatini o'zi baholashga o'rgatish usullari.

Har qanday raqobatbardosh pedagogik kadr faoliyatining samarasi uning o'z faoliyatiga beradigan shaxsiy bahosiga bog'liq.

Mutaxassis o'z faoliyatini o'zi odilona baholab, imkoniyatlar darajasida ishlarini rejalashtirishsagina jarayon kutilgan natijani beradi. Biz tarbiyachilarning malaka oshirgungacha va malaka oshirish davridagi faoliyatini kuzatganimizda ularning yillik ish rejalarida imkoniyatlaridan tashqari muddat, ma'rifiy va moddiy sarflarni talab qiluvchi vaziyatlarning guvohi bo'ldik. Natijada tarbiyachi qanday natijani kutayotgani yoki qaysi natijaga borish lozimligini anglashda qiyinchilikka uchraydi. Bunga sabablar:

- tarbiyachining soha bo'yicha tajribasi kam;
- tarbiyachi soha mutaxassisi emas;
- tarbiyachi ishni endi boshlagan;
- ishni nimadan boshlashni bilmaydi va x k. lar

Mavzu: O'zini o'zi baholash.

Maqsad: ishtirokchilar o'z faoliyatning kuchli va kuchsiz tomonlari va kelajakda ishlarni rejalashtirganda nimalarga va qaysi omillarga e'tibor berish kerakligini bilib oldilar.

Jixoz: markerlar, A4 formatdagi qog'ozlar, flipchart qog'ozlari.

Jarayonning borishi:


1 qadam. Ishtirokchilarning yarim doira bo'lib o'tirishlari so'raladi.

2 qadam. Har bir ishtirokchiga 1 tadan marker va A4 formatdagi qog'oz tarqatiladi.

3 qadam. Topshiriq beriladi. Topshiriq:

15 daqiqa ichida quyidagi jadval asosida o'z imkoniyatlaringizni tahlil qiling.

Jadval doskada osilgan bo'ladi.



4 qadam. Ushbu jadval asosida ishtirokchilar o'zlarining kuchli va kuchsiz hamda imkoniyatlari, kelajakda kutilayotgan xavf-xatarlarini tahlil qilganlaridan so'ng yozgan qog'ozlari doskaga joylashtiriladi. Ular o'z ishlarini nomlaydilar, ya'ni ismi yozib qo'yiladi.

*Eslatma:* har bir ishtirokchining qog'ozini hammaga ko'rinarli qilib, joylashuv jihatdan teng xuquqli tarzda bir tekisda teriladi. Chunki *“bu ish yaxshi shuning uchun eng tepada, bu ish esa kamchiligi bor shuning uchun pastda”* kabi fikrlarni uyg'otmaslik kerak.

5-qadam. 1. Endi hamma sekin-asta doskaga chiqib, o'rtoqlarining imkoniyatlarini o'rgansin.

2. Salbiy jihatlarini bartaraf etishda kim - kimdan qanday maslaxatlar olishi mumkinligini aniqlasin va shu ishtirokchining yoniga borib, maslahatlar olsin.

3. Kim qanday shunday kuchli tomonlarga erishganligini o'rtqlashing.

*Eslatma:* mashg'ulotning shu qismini yana boshqa usulda olib borish mumkin. YA'ni ishtirokchilar 2 qator ichki va tashqi doira bo'lib turadilar. Soat strelkasi bo'ylab tashqi doira aylanadi, ya'ni ishtirokchilar harakatlanadilar. Ro'parasiga kelgan ishtirokchi bilan kuchli va kuchsiz tomonlarini o'rtoqlashadilar. Salbiy jihatlarini bartaraf etish uchun bir-birlariga tavsiyalar beradilar. So'ngra yana doira siljiydi va keyingi o'rtoqning faoliyati tahlil etiladi. Agar javob olgan jihati bo'lsa, unda nimani o'zgartirmoqchiligini so'raydi va shu tariqa ishtirokchilar bir-birlariga amaliy maslahatlar beradilar.

6-qadam. O'z o'zidan eng tajribali defektologlar aniqlanadilar.

*Eslatma:* Bu usul tajribali defektologlarni ajratib olish va ularni kelajakda mashg'ulotlar uchun ekspertlar guruhi etib tayinlashga sharoit yaratadi. Bundan tashqari bu usuldan foydalanish asosida mashg'ulotlar kurs boshida o'tkazilsa, kursning tarkibi, saloxiyatini o'rganishga imkon yaratiladi.

7 qadam. Topshiriq. Endi imkoniyatlarinigizning tahliliga asosan malaka oshirish kursidan nimani kutayotganingizni reja sifatida yozing.

*Eslatma:* Ular rejalarini, ya'ni kutuvlarini yozganlaridan keyin malaka oshirish kursi nihoyasida har bir ishtirokchining yozgan fikri o'qib eshittiriladi va undan so'raladi: "Siz kutgan ma'lumotlaringizni oldingizmi?" yoki "Kurs sizning kutuvlaringizni oqladimi?" kabi savollar beriladi.

8 qadam. Ishtirokchilarning kutuvlari auditoriyaning bir chetiga kurs davomida olinmaydigan holda joylashtiriladi.

9 qadam. Ishtirokchilar bilan ta'limiy muhokama o'tkaziladi.

10 qadam. Mashg'ulotning samarali o'tgani uchun barchaga minnatdorchilik bildiriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Tarbiyachilar va o'quvchilarda kommunikativ malakalarini shakllantirish usullari.

Ma'lumki, tarbiyachining ruhiy tushkunlikka tushgan, stress xolatdagi yoki ruhiy xolati me'yordan chiqqan har qanday yoshdagi inson bilan muloqotga kirisha olishi uning kasbiy maxoratiga baho beradi. Inson qanday xolatda bo'lmasin, o'zining xursandchilik yoki qayg'uli damlarini o'rtoqlashgisi keladi.

Ayrim insonlar bo'ladiki, ular o'z olamida yashashga moslashib qoladilar. Maktab o'quvchilari, maktab pedagog jamoasi orasida ham shunday xolatdagi insonlar uchrab turadi. Bundan tashqari inson hayotida keskin o'zgarishlar yoki tashqi salbiy omillar ta'sirida psixologik chekinishlar egasiga aylanadi. Natijada uning xatti harakatlarida odatiy bo'lmagan xolatlar, me'yordan chiqishlar kuzatiladi. Aynan shu xolatlarni tarbiyachi sezishi vaqtida mutaxassis sifatida yondashishi lozim. Buning uchun tarbiyachi ruhiy tushkunlikka tushgan o'quvchi yoki pedagogik jamoa a'zolari bilan muloqot o'rnatish lozim. Ular tarbiyachi bilan o'rtoqlarcha, ya'ni qalban yaqin inson sifatida kechinmalarini so'zlashi kerak bo'ladi. Ayni shu vaziyatda tarbiyachining kommunikativ malakalari qo'l keladi. Agar tarbiyachi samarali muloqot ko'nikmalariga ega bo'lmasa, u bilan o'quvchi orasida bar'er yo'qolmaydi va tarbiyachi kasbiy vazifasini bajara olmaydi.

Mavzu: Samarali muloqot omillari.

Maqsad: Ishtirokchilar qanday omillar ta'sirida muloqot samarali kechishini bilib oldilar.

Jixoz: flipchart qog'ozlari, A4 qog'ozlari, markerlar, o'yinda ishtirok etadiganlar uchun alohida vaziyatlar yozilgan kartochkalar.

Jarayonning borishi.

1- qadam. Ishtirokchilarning o'zi xoxlagan o'rtog'i bilan juftlik hosil qilib o'tirishlari so'raladi.

2- qadam. Juftliklarning bir-birlariga qarama-qarshi o'tirishlari (stullarning suyanchiqlari yopishtirilgan holda) so'raladi.

3-qadam. Topshiriq. Bir - birlaringizga o'zingizni qiziqtirgan kasbiy savollaringizni bering. Yuzingizni ko'rsatmang.

4 - qadam. SHerigingiz notanish yurtda adashib qolgan. Qo'lingizga berilgan sxema bo'yicha maydon bo'ylab harakatlanishini so'rang.(Sxema bir xil tuzilgan, ikkala qatorga beriladi, birinchi qatordagilar yo'l boshchi, ikkinchi qatordagilar sherigining topshirig'iga binoan chizma bo'ylab yuradilar)

*Eslatma:* bu usuldan foydalanilganda auditoriyada shovqin bo'lishi kutiladi. Shuning uchun stullarning joylashishi bir-biriga yaqin bo'lgani maqsadga muvofiq.

5 qadam. Bir-biringizga qarab o'tiring.

6 qadam. Savollar beriladi.

1. Nima sodir bo'ldi?

2. O'zingizni qanday his qilyapsiz?

3. Nimada qiyinchilik sezdingiz?

4. Sizga nimalar xalaqit berdi?

5. Nega sherigingizni tushunmadingiz?

6. Balki o'zingiz eshitishni bilmagandirsiz?

6 qadam. Yuqoridagi savollarga javob olingach, o'z-o'zidan muloqotning amalga oshirilishida qator shart – ashroitlar bo'lishi lozimligi yuzasidan xulosalar kelib chiqadi. Olib boruvchi doskada flipchart qog'oziga ishtirokchilarning xulosalarini yozib boradi.


Bunda flipchart qog'ozida quyidagi fikrlar yoziladi.

Muloqot samarali bo'lishi uchun:

- suhbatdoshlar bir xil mavzuda gapirishi;
- suhbatdoshlar rostgo'y bo'lishi;
- suhbatga ikkala tomon xam tayyor bo'lishi;
- suhbatdoshining kayfiyatiga qarab, vaziyatni inobatga olish;
- suhbatdoshining mavzuga motivatsiyasini his qilish;
- atordagi tashqi ta'sirlarning mavjudligini hisobga olish;

7 qadam. Trener qisqacha kommunikatsiyaning ikki aspektini aytib o'tadi.

Ular:



Inson suhbatdoshining aytib o'tgan ma'lumotlarining 10 % mazmuniga fakt sifatida, 90% ga his-xayajon, intonatsiya va ko'rgazmali holda berilganiga e'tibor beradi.

8 qadam. Aytib o'tilganlarga munosabatingizni bildirsangiz.

Demak, (duskada flipchart qog'ozida ishlaydi, ishtirokchilar bilan o'quv munozara orqali munosabatlarini yozib boradi)

Ruhiy tushkunlikka tushgan yoki boshqa sabablar bilan sizning yordamingizga muhtojlar bilan muloqotga kirishganda:

- u bilan gaplashganda qalban yaqinlik o'rnatish;
- har bir gapingiz asosli va hayotiy bo'lishi lozim;
- tinglashni bilish;
- har qanday vaziyatning ijobiy tomonini ko'rsata bilish;
- hayot davom etmoqda, uning chiroyli bo'lishi insonning o'ziga bog'liqligi;
- hozir ayni vaqti, shu vaziyatda oldinga qarab yurish, kelajakka ishonch bilan intilish lozimligini sezdira olish;

9 qadam. Juftingiz bilan o'tiring va samarali muloqotga ta'sir etuvchi omillarni sanab o'ting va yozing.

10 qadam. Duskaga flipchart qog'ozi osiladi va har bir juftlikka so'z beriladi. Bittadan samarali muloqotga ta'sir etuvchi omillarni aytish so'raladi. Keyingi juftliklar oldingi fikrlarni takrorlamaslikka harakat qilishlari so'raladi.

11 qadam. Mashg'ulotning samarali o'tganiga bergan yordami, ya'ni faol ishtiroklari uchun barchaga minnatdorchilik bildiriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

Demak, pedagogik texnologik jarayonida tinglovchi mustaqil ravishda bilim oladi, o'rganadi, o'zlashtiradi.

Bu faoliyatni amalga oshirish uni tashkil qilish, olib borish, takomillashtirish, tahlil qilish, tadqiq qilish, qiyoslash umumlashtirish, xulosa chiqarish, boshqarish, nazorat, baholash kabi jarayonlarga ehtiyoj tug'iladi.

## X U L O S A

Ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlashga bo'lgan talablar ortib bormoqda, barkamol yosh avlodni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, ularga zamon talablariga mos bilimlar berishni taqozo etmoqda. Bunday talablarni bajarishda, albatta, tavsiya qilinayotgan usul va texnologiyalarning pedagogik nuqtai nazardan asoslangani, qolaversa, pedagogika fani ham zamonaviy imkoniyatlar va qonuniyatlarni o'zida mujassamlagan va aks etgan bo'lishi kerak.

Jumladan, pedagogika fani paradigmasi tubdan o'zgarganligi, ta'lim tizimining o'ta murakkab tizimlar sirasiga kirishi mutanosib tashkiliy va boshqaruv modellarini yaratish va qo'llashni, ta'lim jarayonlarini axborotlashtirish, axborot va innovatsion texnologiyalarni keng ko'llashni, axborot-o'quv resurslarini yaratish va ulardan foydalanish shakllarini yaratib amaliyotga joriy etishni taqozo etmokda.

Hozirgi zamon o'qituvchisi ta'limning texnik vositalarisiz hamda interfaol usullar- munosabatlarini tubdan o'zgartirish, o'quv amaliyotlarini «Aqliy xujum», «Bumerang», «Stsenariyli o'yin», «3x4» texnologiyasi, «Qaror qabul qilish», «Krossvord» texnologiyalari va mul'timediaga asoslanib erkin, qiziqarli, mustaqil ish faoliyatlari ko'rinishida o'quv jarayonini takomillashtirish davr talabi bo'lib qolmoqda.

O'qituvchining faolligiga yo'naltirilgan darsning metodik ishlanmasidan farqli o'laroq ta'limning pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchi (o'quvchi)larga yo'naltirilgan bo'lib, shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda, o'quv materiallarini o'zlashtirishga qaratiladi.

Pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o'quvchi shaxsini maqsadga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Texnologik yondoshuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik, oraliq natijalarni tashhisli tekshirib borish, ta'limni alohida o'qitish lavhalariga ajratish kabi usullar hozirgi kunga kelib qayta-qayta takrorlash mumkin bo'lgan ta'lim texnologiyasi g'oyasida mujassamlangan.

U asosan o'z ichiga quyidagi omillarni oladi (bunda ularning qisqa mazmuni berilgan):

- *ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;*
- *tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;*
- *o'quvchilarning bilim darajalarini dastlabki (tashhisli) baholash;*
- *bajariladigan o'quv tadbirlari majmuasi (bu bosqichda o'quvchilar bilan muloqot asosida ta'limga joriy tuzatishlar kiritilishi lozim);*
- *natijani baholash.*

Qayta takrorlanish xususiyatli, ushbu tizim "modul" shakliga ega bo'lib, mazmunlar bilan to'latilgan va umumiy tarkibga bog'langan birliklar, jamlamalardan tashkil topadi

Ma'lumki, pedagogikada o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan bir necha o'qitish uslublari ishlab chiqilgan: muammoli o'qitish, ish faoliyatini ifodalovchi o'yinlar, rollar bajarish, mavzuviy o'qitish va hokazo. Ammo ular oliy ta'lim tizimida keng qo'llaniladi deb bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha buning sababi har bir mashg'ulotga tayyorgarlik pedagogik izlanishni ko'zda tutishi, yuksak kasbiy mahoratni, ijodiy yondoshuv va ko'p vaqtni sarflashni talab qilishida bo'lsa kerak. Odatda, har bir bunday mashg'ulot stsenariysi o'ziga xos xususiyatga ega va takrorlanmasdir.

Yordamchi maxsus maktablarda pedagogik amaliyot o'tash davrida men yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim. Buning uchun aqli zaif bolalar maktabining 1 sinf o'quvchilarini tanladim. O'quvchilar soni 1 sinfda 10ta, debil darajadagi bolalar.

Engil – 5, O'rta- 2, Ogir- 3 bolada uyi Zarbdor 1 Zomin 3 Jizzax -5 ravot 1 10 ta bola (xar biriga 10%dan)

1 – sinf o'quvchilari haqida ma'lumot

| <b>№</b> | <b>Bolalar ismi<br/>familiyasi</b> | <b>Tugilgan<br/>yili</b> | <b>Uy manzili</b>                      | <b>Kasallik<br/>tashxisi</b> | <b>Yaxshi<br/>o'qiydi</b> | <b>O'rta<br/>o'qiydi</b> | <b>Yomon<br/>o'qiydi</b> |
|----------|------------------------------------|--------------------------|----------------------------------------|------------------------------|---------------------------|--------------------------|--------------------------|
| 1.       | Axrorova N                         | 2004                     | Zomin tumani                           | RRS                          |                           |                          | +                        |
| 2.       | Bekpulatov N                       | 2004                     | Zarbdor tumani                         | BM rezidual                  |                           | +                        |                          |
| 3.       | Mirzayev O                         | 2004                     | Jizzax tumani<br>Ravot SFU             | Debil                        | +                         |                          |                          |
| 4.       | Nosirova I                         | 2005                     | Zafarobod tumani                       | Debil                        | +                         |                          |                          |
| 5.       | Qo'sharboyeva L                    | 2005                     | Jizzax shaxar Zilol maxallasi          | Debil                        |                           |                          | +                        |
| 6.       | Sangirova                          | 2004                     | G'allaorol tumani                      | Debil                        | +                         |                          |                          |
| 7.       | Tirkasheva O                       | 2005                     | Jizzax shaxar Ok qo'rg'onlik maxallasi | Debil                        |                           | +                        |                          |
| 8.       | G'ofurov U                         | 2004                     | Mirzacho'l tumani                      | Debil                        |                           |                          | +                        |
| 9.       | Maxmudov F                         | 2005                     | Mehribonlik uyi                        | Debil                        | +                         |                          |                          |
| 10.      | Omonov Z                           | 2004                     | Jizzax shaxar Ittifoq maxallasi        | Debil                        | +                         |                          |                          |
|          |                                    |                          |                                        |                              | 50 %                      | 20 %                     | 30 %                     |

An'anaviy dars o'tilgandagi xolat

| <b>№</b> | <b>Bolalar ismi<br/>familiyasi</b> | <b>Tushu-<br/>nadi</b> | <b>Savolga<br/>javob<br/>byteradi</b> | <b>Taxlil<br/>qiladi</b> | <b>Darsga<br/>qiziqadi</b> | <b>Matnni<br/>o'qiydi</b> | <b>Matnni<br/>so'zlab<br/>byteradi</b> | <b>Darsda<br/>xar<br/>tarafлама<br/>passiv</b> |
|----------|------------------------------------|------------------------|---------------------------------------|--------------------------|----------------------------|---------------------------|----------------------------------------|------------------------------------------------|
| 1.       | Axrorova N                         | 9 %                    | +                                     | 4 %                      | Diqqati tarqoq             | -                         | -                                      | Passiv                                         |
| 2.       | Bekpulatov N                       | 9 %                    | +                                     | -                        | Diqqati tarqoq             | -                         | +                                      | O'rta                                          |
| 3.       | Mirzayev O                         | 10 %                   | +                                     | 10 %                     | 10 %                       | +                         | +                                      | O'rta                                          |
| 4.       | Nosirova I                         | 10 %                   | +                                     | 9 %                      | 10 %                       | +                         | +                                      | Yaxshi                                         |
| 5.       | Qo'sharboyeva L                    | 8 %                    | -                                     | -                        | -                          | Qisman                    | -                                      | O'rta                                          |
| 6.       | Sangirova                          | 10 %                   | +                                     | 9                        | +                          | +                         | +                                      | Yaxshi                                         |
| 7.       | Tirkasheva O                       | 9 %                    | +                                     | -                        | -                          | -                         | -                                      | Passiv                                         |
| 8.       | G'ofurov U                         | 4 %                    | -                                     | -                        | -                          | -                         | -                                      | Passiv                                         |
| 9.       | Maxmudov F                         | 10 %                   | +                                     | 9 %                      | +                          | +                         | +                                      | Yaxshi                                         |
| 10.      | Omonov Z                           | 10 %                   | +                                     | 10 %                     | +                          | +                         | +                                      | Yaxshi                                         |

O'quvchilar bilan ishlaganda yana bir bor men bolalar tashxisiga kata e'tibor berish zarurligini tushunib etdim. Dars o'tish davomida barcha bolalarga darslikda berilgan ma'lumotni bir xil qilib etkazish va ularni bolalarni xammasi bir xil qabul qila olmasligi ravshan bo'ldi. Negaki debil darajadagi bolalar orasida ogir darajalari xam mavjud. Ular uchun dars o'tish chogida men engilroq topshiriqlar berishga harakat qildim. Masalan o'qishni, yozishni o'zlashtirishi qiyin bola. Uning xatto nutq faoliyatida xam kata kamchiliklar kuzatiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan, so'zlarni bir – biriga qo'shib gapirmaydi, unga qaratilgan nutqni tushunadi, u uchun dars davomida ichki lug'atini o'rgangan xolda predmetli rasmlar orqali tashqi lug'atini oshirishga harakat qildim. Boshlangich davrda bola harakatli o'yinlarga ishtirok etmagan bo'lsada keyinchalik taqlid usulida aytiladigan bo'g'inlarni ayta boshladi. Darsga xam qiziqishi ortdi. Xarflarni bosma shakli ustida yozish malakasini olib bordim. Aqli zaif bolalar psixik jarayonlarida juda ko'p buzilishlar kuzatiladi, xotira sustligi, tasavvur pastligi, idrok va xayol buzilganligi, bilish faoliyatining pastligi. Ushbu jarayonlarni xisobga olgan xolada biz o'z ishimizda bir qancha usullarni qo'llab ko'rdik.

Avval boshlanishida bir oz o'quvchilar qiynalishdi, bajarilish qoidalari va erkin faoliyat roritilgandan keyin esa bolalar faolligi oshdi. Masalan, Davralar: O'quvchilar davra qurib o'tirib, taklif etilgan savolni galma-gal izohlab chiqishadi. Har bir o'quvchi o'z fikrini bayon qilib, muhokamaga foydali ulush qo'shish imkoniga ega bo'ladi, chunki barcha qatnashchilarning fikrini bilish muhim. Lekin qatnashchilar o'z ixtiyori bilan navbatini o'tkazib yuboradigan bo'lsa, bu – tamomila odatdagicha hol. Ba'zan qanday bo'lmasin biror savol yoki topshiriq davra bo'ylab o'tkaziladi va uni olgan o'quvchi o'z fikrini aytish huquqiga ega bo'ladi. Bu usulni qo'llaganimizda bolalar birinchi nima qilishni bilmadi, negaki o'quvchilarning ko'pchiligi nutq faoliyatida kamchilik ko'p. Qo'shimcha shaklda biz bunga berigan topshiriqni harakatlar asosida ko'rsatish, bir – biriga yordam berish, qo'llash shaklida olib borganda natija ko'rina boshladi. Xama o'z guruxi uchun kurasha boshladi.

1. «So'z top» o'yini. Bu metodni darsning kirish qismida avvalgi darsni mustahkamlash maqsadida yoki lug'at ustida ishlash maqsadida o'tkazdik. O'qituvchi bironta so'z aytadi, o'quvchilar esa davom ettiradilar. O'yin qoidasiga ko'ra, o'qituvchi boshlagan so'z qaysi harfda tugasa, o'quvchi shu harfdan boshlangan so'zni aytishi kerak. Masalan: Darsiik-kitob-bola-anor-ro'mol va hokazo. Bolalar bir necha bor takror o'ynaganlaridan keyin 50% natijaga erishildi. Bu xam o'qituvchi yordamida. Bu o'yinni biror mavzu guruhiga oid so'zlar bo'yicha ham o'tkazish mumkin. O'quvchilar navbatma- navbat bir soha yoki bir mavzu guruhiga oid so'zlarni topishlari kerak.

Masalan, sinfda, uy jihozlariga oid so'zlarni aytish topshirig'i berilsa, 1-o'quvchi: xontaxta, 2-o'quvchi ko'rpacha, 3-o'quvchi gilam, 4- o'quvchi guldon va hokazo tarzida davom ettirib ketishi mumkin, Bunda tezda so'z topa olmagan o'quvchi o'yinni tark etadi, o'yin oxirigacha qolganlar g'olib bo'ladi. Shuningdek, bu o'yinni o'simliklar, gullar, o'quv qurollari nomlari bo'yicha ham tashkil etish mumkin shu bois bu ta'limiy o'yin o'tilgan mavzular va o'rganilgan so'zlarni o'quvchilar xotirasida mustahkamlashga juda katta yordam beradi. Aqli zaif bolalar maktabida bir oy muddat pedagogik amaliyotda pedagogik texnologiyalarni qo'llab dars tashkil etgan bo'lsak o'z maqsadimga 60 % erishdim deb qo'qmay ayta olaman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O'zbekiston. 1992 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O'zbekiston. 1995 y.
3. Karimov I.A. "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent. 1998 y.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo'llari va choralari. Toshkent. 2009.
6. Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisi. 2010 yil.
7. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. 2011 yil.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O'zbekiston. 1997.
9. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"/ Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
10. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent. "O'qituvchi".2004.-102 b.
11. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiya larni amaliyotga joriy qilish. Toshkent. "Fan va texnologiya". 2004.-102 b.
12. "Innovatsiya v obrazovanii" jurnal. Moskva. 2006 2-3-sonlari.
13. Monaxov V.M. Proektirovaniya sovremennoy modeli distantsionnogo obrazovaniya. Pedagogika.2004 №6.
14. Leptina I., Semenova N. Primeneniya effektivnykh texnologiy obucheniya. Uchitel'. 2003 №1.

15. Farberman B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: OO'MMMI, 2000.
16. Po'latova F. Oligfrenopedagogika. T, 1997.
17. Raxmanova B.V. Maxsus pedagogika. T., 1991.
18. Muminova L.R., Ayupova M.Yu. Logopediya. T., 1995.
19. Niyozmetova «Alohida yordamga muxtoj bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalash» Toshkent «O'zbekiston» nashriyoti .
20. Xaqberdiyev «Bola intellektini o'stirishda maktab va ota onalar hamkorligi» Toshkent «O'zbekiston»
21. U.Nazaraliev, M.Tolipov Defektologik tushunchalarning izoxli lug'ati. Toshkent 2010 yil.
22. U.Nazaraliev, M.Tolipov, N.Sultonova, R.Tolipov Maxsus pedagogika: asosiy tushunchalar. Toshkent "Yangi nashr" 2012 yil.
23. Hakimova M.F. Maxsus maktablarda ta'lim-tarbiyaning pedagogik asoslari O'quv qo'llanma. - Toshkent, Mehnat. 2000. -94 b.
24. K.Mamedov, G.Berdiyev, S'H.Xoliqova. Maxsus psixologiya ma'ruzalar matni. Toshkent, 2001.
25. S.Sh.Aytmetova Yordamchi maktab o'quvchilarining psixik rivojlanish xususiyatlari Toshkent Ukituvchi 1984-yil
26. Mavlonova. O. Turayeva Murodov «Pedagogika» O'qituvchi 2000-yil
27. [WWW.pedagog.uz](http://WWW.pedagog.uz)
28. [WWW.TDPU.uz](http://WWW.TDPU.uz)
29. Ziyonet.[www.ziyonet@mail.ru](http://www.ziyonet@mail.ru)

## **Ilova**

### **KICHIK GURUHLARDA ISHLASH USULI:**

Bularga: “fikriy hujum” (“fikir janggi”), sinektika, mojarro metodi, “dumaloq stol”, “uch bosqichli intervyu”, muammolarni hal qilish metodi, “stol o‘rtasidagi ruchka”, “galeriyani aylanish”, “akademik munozara”, “qor bo‘ron” metodi, “asalari galasi”, “munozarali vaziyatni tahlil qilish” va boshqalar kiradi.

Bu metodlar bo‘yicha ishlash uchun bir necha kishidan iborat guruhlar tuzib, ishonch vaziyatini vujudga keltirish, oshkora muhokama uchun xalal beradigan psixologik keskinlikni bartaraf etish zarur.

Ushbu guruh metodlari fikrlash doirasini kengaytirib, mavjud cheklovlarni nazardan qochirib turish, fikrlash faoliyati harakatchanligini rivojlantirish, o‘quv faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan. Ularning samarasi yangi o‘quv axborotini ishlab chiqish va mustahkamlashdan iborat.

#### **Maqsadi**

1. O‘quvchilarni ko‘proq jalb etish va ularning bir-biridan o‘rganishga imkon berish.

2. Yo‘l-yo‘riq berib turadigan murabbiyni “sahnadan” chiqarib yuborish.

#### **Afzalliklari**

1. O‘quvchilarga o‘z g‘oyalari va fikrlari bilan ko‘proq o‘rtoqlashish uchun imkon beradi

2. Kichik guruhlarda o‘quvchilar katta guruhlarda aytishlari mumkin bo‘lgan fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin.

3. O‘quvchilar tajriba va g‘oyalar bilan o‘rtoqlashishlari mumkinki, bu – bilimlarni kengaytiradi va mavjud yondashuvlarni o‘zgartiradi.

4. Diqqat markazini pedagogdan (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi murabbiydan) qatnashchilarga ko‘chiradi.

5. O‘quvchilarni o‘qish uchun ko‘proq mas‘uliyatni o‘z ustlariga olishga majbur qiladi.

### Kamchiliklar

- ancha ko‘p vaqt va qo‘shimcha joy bo‘lishini talab qiladi;
- o‘quvchilarning birortasi boshchilik qilishga o‘ta boshlashi, agar guruh bunga qarshilik ko‘rsatmasa, uning ustidan nazorat qilishni o‘z qo‘liga olishi mumkin;
- guruh o‘ziga berilgan topshiriqlardan chalg‘ib, yo‘l-yo‘riqlarga aniq amal qilmasligi yoki topshiriqlarni noto‘g‘ri tushunishi mumkin.

### Pedagogga (yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi murabbiyga) maslahatlar:

- topshiriqni aniq va ravshan qilib ta‘riflab bering, keyin esa uni hamma tushunib olganiga ishonch hosil qiling;
- o‘quvchilarga ularning auditoriyada joylashib olishlari uchun vaqt bering va shundan keyingina ulardan topshiriq ustida ishlay boshlashga ruxsat bering;
- yo‘l-yo‘riqlarni loaqal bir marta takrorlang;
- o‘quvchilarning yo‘l-yo‘riqlarga nechog‘li aniq amal qilib borishayotganini va topshiriqlardan chetga chiqishmayotganini qayta-qayta tekshirib ko‘ring.

### “Fikriy hujum” (“Fikriy jang”) metodi:

#### Metodning asosiy qoidalari:

- g‘oyalarni shakllantirishga xalal beradigan qanday bo‘lmasin biror mulohaza va tanqidiy fikrlarni bajarmaslik;
- yangicha fikrni tabriklash va fikr qanchalik odatdan tashqari bo‘lsa, uni shuncha yaxshi bo‘lishini hisobga olish;
- eng ko‘p sonda takliflar olish;
- g‘oyalarni rivojlantirish;
- har tomonlama dalil-isbotlar keltirmasdan turib, qisqa fikrlarni bayon qilish;
- guruhni g‘oya beradigan o‘quvchilar va ularni ishlab chiqadigan o‘quvchilarga bo‘lish.

Bu metod o'quvchilarni o'z nuqtai nazarini isbotlash, himoya qilish, har qanday vaziyatda eng ma'qul yechimni topish, muloqot olib borishga, himoya qilinayotgan nuqtai nazarning to'g'riligiga hammani ishon tirishga o'rgatadi.

Masalan, pedagogika fanidan mashg'ulot mavzusi: "Ilmiy pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari".

O'qituvchi doska oldida turib, "Pedagogika fanlarida qanday tadqiqot manbalari mavjud?" degan savolga variantlar berishni o'quvchilarga taklif etadi.

O'quvchilar ularni sanab o'ta boshlaydilar:

- 1) o'quvchilar tarbiyasi;
- 2) o'quvchilar faoliyati;
- 3) o'qituvchilar faoliyati;
- 4) Maktabdagi o'quv-tarbiyaviy ishlar;
- 5) ota-onalar faoliyati;
- 6) jamoatchilikning tarbiyaviy ishlar sohasidagi faoliyati;
- 7) bolalar va o'smirlar uyushmalari faoliyati va h.

O'qituvchi topshiriqni tahlil qilishda har bir o'quvchi qatnashadigan bo'lishini kuzatib boradi, bunda javoblarning birontasi ham izohlab o'tilmaydi va o'rinsiz deb rad etilmaydi. Guruhda variantlar qolmaganidan keyingina muhokamaga kirishish mumkin: "Ta'lim-tarbiyadagi hodisa va dalillarni uzoq vaqt, muntazam, ma'lum maqsadga qarata ixtiyoriy idrok qilinadimi? Qanday tadqiqot metodlaridan foydalanish mumkin? Yana qanday manbalarni pedagogik manbalar deb atash mumkin? Hozirgi davr talabidan kelib chiqib qanday sohalarni tadqiq etish zarur deb o'ylaysiz?" O'quvchilar o'qituvchi bilan birgalikda barcha variantlarni faollilik bilan muhokama qila boshlaydilar. Va bu o'rinda noto'g'ri javoblarni tanqid qilishga va noto'g'ri bo'lib chiqqan variant xususida tanqidiy munosabatni asoslashga ruxsat berilmaydi. Faqat mashg'ulot oxirida o'qituvchi bilimlarni yanada mustahkamlash uchun to'g'ri variantlarni yozib olishni o'quvchilarga taklif etadi.

Metodning maqsadi – guruhdan qisqa vaqt ichida ko‘p miqdor variantlarni olish, o‘quvchilar nimalarni bilishini aniqlash. Mashg‘ulot davomida muammoni hal eta oladigan g‘oyalar taklif etilishi, umumiy tajriba yuzasidan fikr almashish uchun zamin yaratilishi va o‘quvchilar istaklarini bildirishi mumkin.

Bu jarayon mohiyati shundan iboratki, guruhga mavzu, savol yoki tugallanmagan taklif beriladi. Guruh a‘zolari bir necha daqiqa davomida shu mavzu yuzasidan gaplashib, miyasiga nima kelsa, shularning hammasini aytishadi va bularning hammasini tinglash, bo‘r bilan doskaga yoki daftarchaga yozib borish tavsiya etiladi. Gaplarning hammasi, ular qanchalik noaniq, bema‘ni yoki bahsli bo‘lmasin, yozib qo‘yilaveradi.

Hamma o‘z fikrini muhokama qilmasdan turib, bayon qiladi, chunki maqsad ko‘proq miqdorda va xilma-xil takliflar olishdir. Bu paytda taqiqlar bo‘lmaydi va hech qanday baholar berilmaydi. Qatnashchilarda takliflarni tahlil qilish, norozilik bildirish va taklif etilgan hamma fikrlarni muhokama qilib chiqish uchun keyinroq imkon bo‘ladi. Agar faollik sust bo‘lsa, o‘qituvchi o‘z fikrlaridan ba‘zilarini yozib olishni taklif etishi mumkin, lekin bundan oldin u bir oz jim turishi kerak.

Metodning ahamiyati shundaki, u guruhni birlashtirib, yakdil qiladi. Har bir o‘quvchiga uning taklifi yozib olishga arzigulik ekanligini sezish uchun imkon beriladi. Bu narsa muammoni yechishni musobaqaga aylantirmasdan, balki birgalikda bajariladigan ishga aylantirishga imkon tug‘diradiki, bunda guruhning boshqa bir a‘zosi emas muammoning o‘zi asosiy raqib bo‘lib qoladi. Shunisi muhimki, guruhning qiladigan hatti-harakatlari tartibini o‘qituvchi fikriy hujumning eng boshidayoq tushuntirib berishi kerak.

Guruhning topshiriqdan chalg‘itishga yo‘l qo‘ymaslik ham muhim: fikr jangida ishtirok etishga o‘rganib qolgan guruh ham takliflarni muhokama qilishga vaqtdan ilgari kirishib ketishi mumkin. Berilgan takliflarni yozib borish uchun bir kishini ajratish o‘rinlidir, bu narsa jarayonni quvvatlab borish va o‘quvchilarning fikrlash jarayoni sur‘atlarini pasaytirmaslik uchun o‘qituvchiga yordam beradi.

“Fikriy hujum” metodini tadbiq etish uchun tavsiyalar:

- u mavzuga mos keladigan bo'lishi uchun uni o'tkazishga yaxshi tayyorlanish;

- guruh oldida muhokama yuritish uchun mavzuni aniq ta'riflab bering;

- "Fikriy hujum" odatda og'zaki shaklda bo'lib o'tadi: o'qituvchi savol beradi, o'quvchilar esa, munozaraga tushmasdan, o'z fikrlarini galma-gal bayon qilishadi, bunda hamma o'z fikrini aytib bo'lishi kerak;

- g'oyalarning hammasini barchaga namoyish qilib ko'rsatib qo'yilmaguncha ularni muhokama qilmaslik nihoyatda muhim;

- jarayonning tartibi va maqsadini o'quvchilarga tushuntirib qo'yish lozim;

- xoh o'qituvchi bo'lsin, xoh o'quvchi bo'lsin ularning har qanday g'oyaga salbiy baho berishlariga yo'l qo'ymaslik kerak;

- g'oyalar ro'yxati kimdagi uzunroq bo'lsa, o'sha yaxshi hisoblanadi.

#### Dumaloq stol metodi:

Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'ylab o'tkaziladi. Har bir o'quvchi o'zining javob variantini yozib qo'yadi va varaqni boshqa o'quvchiga uzatadi. Hamma o'quvchilar o'z javoblarini yozib qo'yishadi, keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab o'quvchining bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin.

Berilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarga misollar:

- tarbiyaning tarkibiy qismlari qaysilar?;

- aqliy tarbiyaning hozirgi davr talabi nimada?;

- axloqiy tarbiya vazifalari qaysilar?;

- ekologik tarbiyaning mohiyati nimada?;

- mehnat va iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalarni izohlang;

- estetik tarbiyaning vazifalarini ayting;

- jismoniy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati;

- huquqiy tarbiyaning muhim belgilari qaysilar?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo'yilgan savol, bu – javobning yarmisini o'ziga jo qilgan savoldir.

### “Ruchka stol o‘rtasida” metodi:

Butun guruhga topshiriq beriladi (masalan, o‘quvchi shaxsining rivojlanishi va shakllanishiga ta‘sir etuvchi; shaxs rivojlanishi va shakllanishining asosiy omillari birma-bir ko‘rsatib o‘tilsin). Har bir o‘quvchi bitta javob variantini bir varaq qog‘ozga yozib, uni qo‘shnisiga beradi, o‘z ruchkasini esa, stolning o‘rtasiga surib qo‘yadi.

Topshiriqqa misol:

O‘qituvchining guruhga beradigan topshirig‘i shaxs rivojlanishi va shakllanishiga ta‘sir etuvchi asosiy omillarni hayotiy misollar bilan sharxlab berish.

Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko‘proq sonda javob variantlari berishi kerak. Bir varaq qog‘ozga yozilgan topshiriq bir o‘quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O‘quvchi javobni yozib, qog‘ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi, ruchkasini esa, o‘ziga ro‘baro‘ qilib, stolga qo‘yib qo‘yadi. Javobni bilmaydigan o‘quvchi qog‘ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo‘lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo‘lishiga bu o‘rinda yo‘l qo‘yilmaydi.

Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog‘oz o‘qituvchida. U o‘sha variantlarni sanab o‘tadi.

Variantlar sanab o‘tilar ekan, ularning har biri bir yo‘la muhokama qilib boriladi: Insondagi tug‘ma qobiliyatni qanday izohlaysiz? Bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhit deganda nimani tushunasiz? Va hokazo.

“Ruchka stol o‘rtasida” metodining bir qancha afzalliklari bor:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko‘rib turadi;
- mashg‘ulotga tayyorlanmagan o‘quvchi og‘zaki muhokama paytida ko‘rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin;
- bu guruhda olib boriladigan ish bo‘lib, o‘quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o‘z varianti ustida juda uzoq o‘ylab o‘tiradigan o‘quvchi butun guruhga ajratilgan vaqtni sarflaydi.

Shuningdek, o'quvchi mashg'ulotga tayyor bo'lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo'ladi;

- o'quvchilar o'z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og'zaki muhokama vaqtida tahlil qilib chiqishadi.

Rotatsiya (aylanma) metodi bilan fikrlarni ko'rib chiqish:

Bu metod mashg'ulot mavzuini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruh tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi.

Har bir kichik guruh 30 daqiqa davomida 3 ta topshiriqni muhokama qiladi, keyin 15 daqiqa davomida esa, muhokama birgalikda o'tkaziladi.

Auditoriyaga tartib raqamlari bilan birga bir nechta topshiriq osib qo'yiladi. Har bir kichik guruh (2-3 kishi) 10 daqiqa davomida muhokama qilib, o'z javobining variantini yozib oladi-da, so'ngra keyingi topshiriqqa o'tadi va oxirigacha shunday qilib boradi.

Har bir guruh o'ziga rangli flomaster oladi: I guruhda ko'k, II guruhda qora, III guruhda yashil flomaster bo'ladi. Qo'shimchalarni har kim har bir varaqqa o'zining rangli flomasteri bilan yozib boradi, shunda uchchala guruhdan har birining ishtiroki yaqqol ko'rinib turadi.

Topshiriqni 10 daqiqadan keyin almashtiriladi, I guruh 2-topshiriqqa, II guruh 3-topshiriqqa, III guruh esa 1-topshiriqqa o'tadi.

Guruh oldingi o'quvchilar tomonidan yozib qo'yilganlarni o'qiydi va o'z javobi variantini yozib, to'ldiradi, bunda variantning takrorlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yana 10 daqiqadan keyin guruh keyingi topshiriqqa o'tib, yozilganlarni o'qiydi va o'z javoblari bilan to'ldiradi.

Yana 15 daqiqadan keyin javoblar tahlil qilinib, muhokama o'tkaziladi.

So'ngra eng ma'qul javob tanlab olinib, daftarga yozib qo'yiladi.

Bu metod mavzuni jamoa bo'lib muhokama qilishni ko'zda tutadi.

Har xil rangdagi flomasterlardan foydalanish yozilganlarning yaqqol ko'rinib turishi va har qaysi guruhning javobdagi ishtirokini baholash uchun qulay.

Yozilgan javoblar tartib raqamlari bilan belgilab qo'yiladi, bu – to'g'ri javoblarni hisoblash uchun qulaydir. Javoblarni hammadan ko'p sonida yozgan kichik guruh eng yuqori ball oladi.

“Galereyani aylanish” metodi:

Kichik guruhlarining hamma a'zolariga bitta muammo taklif etiladi. Har bir guruh 10 daqiqa davomida o'z fikrlarini yozadi-da, javoblar zikr etilgan varaqlarni ikkinchi guruh bilan almashtiradi. Keyingi guruh oldingi guruhning javoblarini baholashi va, javob tugal bo'lmasa, o'z variantini taklif etishi kerak.

Shu kungi mavzuga doir ona tili fanidan topshiriqlarga misollar:

Ega, kesim, to'ldiruvchi.

1-varaq: gap bo'lagi ega nimalarni o'z ichiga oladi?

2-varaq: gap bo'lagi kesim nimalarni o'z ichiga oladi?

3-varaq: gap bo'lagi to'ldiruvchi nimalarni o'z ichiga oladi?

O'quvchilar o'z javoblarini berib, o'rtoqlarining javoblarini to'ldirishganlaridan keyin hammalari birgalikda ularni muhokama qilishadi va eng yuqori ballga arziydigan juda to'g'ri javoblar tanlab olishadi.

Munozara:

Munozara – bu ikki yoki bundan ko'proq kishilarning keskin chegaralangan qoidalar doirasida og'zaki ravishda o'zaro olib boradigan bahsi, munozarasi, masala talashuvidir. Uning asosida kamdan-kam hollarda yashirin mo'ljallanish yotadi, bu o'rinda faqat nazariy qiziqish va oqillik bilan keltirilgan dalil yordamida opponentdan ustun kelish ishtiyoqi bo'ladi.

Munozara nazariya yoki g'oyalarni targ'ib qilish maqsadida emas, balki mamnun bo'lish va qatnashchilarga bilim berish maqsadida olib boriladi. Munozara mavzui hamisha taklif ko'rinishida maydonga qo'yilishi kerak, gap nimalar to'g'risida ketayotgani juda ham aniq-ravshan bo'lishi uchun esa jummalarni sinchiklab tuzib olish lozim. Munozarada, hech bo'lmaganda, ikki nafar so'zlovchi va rais qatnashadi. Qatnashchilarning biri taklifni qo'llab quvvatlab chiqsa (Munozarani ochuvchi kishi), ikkinchisi – bu taklifga qarshi bo'lib chiqadi – opponent bo'ladi.

Munozaralarda boshqalar ham biror tomon tarafdori bo‘lib so‘zga chiqishi mumkin.

Munozara ochuvchi kishi va opponent, shuningdek qo‘shimcha ravishda so‘zga chiqadiganlar o‘z so‘zlarini oldindan tayyorlab olishlari kerak.

Har bir kishi muayyan vaqt davomida, odatda, 15 daqiqa so‘zlaydi, har qaysi tomondan qo‘shimcha ravishda so‘zga chiquvchilar ko‘p deganda 2 kishi bo‘lishi va ularning so‘zlash vaqti 5 daqiqadan ortmasligi kerak. Munozara ochilishidan oldingi yarim soat davomida guruhning har bir a‘zosi uning mavzui yuzasidan fikr bildirishi – unga qo‘shilishi yoki qarshi chiqishi mumkin. Bunga 3 daqiqa beriladi, ikki marta so‘zga chiqish ruxsat etilmaydi. So‘zga chiquvchilarning hammasi raisga murojaat qilishadi, uning qarori uzil-kesil bo‘lib hisoblanadi.

So‘zga chiqish tartibi quyidagicha:

- munozarani ochuvchi;
- opponent;
- munozarani ochuvchining yordamchilari, agar ular bo‘lsa;
- opponent yordamchilari;
- auditoriyadagilarning so‘zga chiqishi;
- munozarani ochuvchi.

Raisning asosiy vazifasi munozara tartibig qat’iy amal qilinishi va so‘zlovchilarning munozara mavzuidan chetga ketmasligini kuzatib borishdan iborat.

“Akvarium” metodi:

Guruhdan ixtiyoriy ravishda 3 kishi tanlab olinadi. Bular auditoriyaning o‘rtasidan joy oladilar – go‘yoki “baliq”, qolganlar esa, kuzatuvchi bo‘lishadi. Shu kichik guruhga bir vaziyat taklif etiladi, ular buni 10– 15 daqiqa davomida birgalikda muhokama qilishlari, kuzatuvchilar esa, davradagi o‘rtoqlarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javoblarini yozib borishlari kerak. Avval “baliqlar” taklifi qabul qilinadi, uni kuzatuvchilar muhokama qilishadi, keyin kuzatuvchilar o‘z takliflarini aytishadi, shu takliflardan eng yaxshisining muallifi o‘z taklifini aytmagan o‘quvchi o‘rniga kichik guruhga o‘tadi.

Bu metodni xuddi “Nima, qaerda va qachon?” nomli o‘yin singari o‘tkazish mumkin, o‘qituvchi oldindan tayyorlab qo‘yilgan savollarni beradi, o‘quvchilar bularni 1 daqiqa davomida muhokama qilib, javob berishadi.

Javoblar qanoatlanarli bo‘lmasa, stolga boshqa uch nafar o‘quvchi borib o‘tiradi va o‘yin davom etadi. Masalan:

Savol: Hozirgi davrda ta‘lim-tarbiyani takomillashtirish va samaradorligini oshirish nimaga bog‘liq? Javob: Ta‘lim - tarbiya metodlari, tajribalarni tushunish va unga ijodiy yondashish, ta‘limning tashkiliy shakllari, vositasi va usullarining nazariy asoslanish, uni boshqarish va mantiqiy tuzilmasi ko‘pincha o‘qituvchining metodologik tayyorgarligiga bog‘liq.

Savol: Hozirgi taraqqiyot davrida tarbiyaning o‘rni qanday? Javob: Hozirgi taraqqiyot tarbiyaning muhim masalalarini birinchi o‘ringa qo‘ymoqda, mafkuraviy ishlarni kuchaytirish, ta‘limning mazmunini milliylashtirish, uni takomillashtirish, ta‘limning tashkiliy shakl va metodlarini takomillashtirish, nazariy va amaliy masalalarini hal qilishga yangicha yondashish, metodologik muammolar ustida ko‘proq fikr yuritishni talab qilmoqda. Umumiy ma‘lumot muammosi hozirgi davrdagi eng muhim muammolaridan biridir, bu uning hozirgi davr talabiga javob berishi milliyliigi, umuminsoniy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilish, o‘quv materiallarini tashkil qilish va tanlash printsplariga mos bo‘lishi kabilardir.

“Akvarium” metodining afzalliklari:

- mavzu birgalikda muhokama qilinadi;
- metod mavzuni qismlarga ajratishga, o‘quvchilar bilimlarini tekshirishga imkon beradi;
- munozara olib borish malakasi rivojlanadi;
- mashg‘ulot o‘yin ko‘rinishida o‘tadi;
- har bir o‘quvchi ishtirok etadi.